

204
B-37.

F. D. Bahromov

AXBOROT

TEKNOLOGIYALARI

TERMINLARI IZOHLI LUG'ATI



Книга должна быть
возвращена не позже
указанного здесь срока

Количество предельных
выдач _____

4.11.21г
1.06.22
3.10.22г

F. D. BAHROMOV

АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ

ТЕРМИНЛАРИ ИЗОHLI ЛУГ'АТИ

- 0484 -

ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TAILIM VAZIRLIGI
TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
АХБОРОТ RESURS MARKAZI
1-FILIALI

«SHARQ» NASHRIYOT-MATBAA
AKSIYADORLIK kompaniyasi

BOSH TAHRIRIYATI O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TOSHKENT - 2012 VA O'RTA MAXSUS TAILIM VAZIRLIGI
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

АХБОРОТ RESURS MARKAZI

YJK: 004(038)
KSK 32.81.92
B-37

*Mas'ul muharrir: U. DALABOYEV, fizika-matematika fanlari
nomzodi, dotsent*

Tagriatchilar:

Sh. AXROROV, pedagogika fanlari doktori, professor
M. BOTIROV, texnika fanlari nomzodi

O'zbekiston Davlat jahon tillari universiteti ilmiy
kengashining 2012-yil 26-yanvardagi qarori bilan
nashrga tavsiya etilgan

B-37 **Bahromov, F. D.**

Axborot texnologiyalari terminlari izohli
lug'ati / F. D. Bahromov; mas'ul muharrir
U. Dalaboyev. – T.: «Sharq», 2012. – 80 b.

«Axborot texnologiyalari terminlari izohli lug'ati» axborot
kommunikatsiya texnologiyalarida qo'llaniladigan termin-
larning izohi, ba'zilarining ma'nosi, ta'rifi, tarixiy ma'lumot-
lari keltirilgan.

Ushbu «Axborot texnologiyalari terminlari izohli lug'ati»
oliy o'quv yurtlarining ilimiy va gumanitar yo'nalishda
tahsil olayotgan talabalari, akademik litsey va kasb-hunar
kollejlari o'quvchilariga mo'ljallangan. Undan axborot
texnologiyalari bilan qiziquvchi boshqalar ham foydalanishlari mumkin.

ISBN-978-9943-00-884-7

YJK: 004(038)
KSK 32.81.92

ISBN-978-9943-00-884-7

© «Sharq» NMAK Bosh tahririyati, 2013

KIRISH

Jamiyat taraqqiyotida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ahamiyatining kattaligi tobora ayon bo'lmoqda. Shuning uchun respublikamizda axborot kommunikatsiya texnologiyalari sohasida milliy axborotlashitirish tizimini shakllantirish, jamiyat hayoti va boshqaruving barcha jabhalariga zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuter texnikasi va telekommunikatsiya vositalarini joriy qilish va ulardan foydalanish, fuqarolarning axborotga bo'lgan ehtiyojini to'laroq qondirish va jahon axborot resurslariga ulanish imkoniyatlarini kengaytirish asosiy vazifalardan hisoblanadi.

Mamlakatimizda kompyuterlashitirish va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirishga doir muayyan vazifalar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2002-yil 30-maydagi «Kompyuterlashitirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to'g'risida»gi farmonida belgilab berilgan hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 6-iyundagi «Kompyuterlashitirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 200-sonli qarorida o'z aksini topgan.

Bugungi kunda barcha jabhalarning faoliyatini zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etilmogda. Shuning uchun axborot texnologiyalariga oid

terminlarning izohi, ma'nosi va ta'riflarini bilish, tushunib yetish, mazmun-mohiyatini o'rganish davr talabidir.

Mazkur axborot texnologiyalari terminlari izohli lug'at ijtimoiy va gumanitar yo'nalishdagi oliy o'quv yurtlari talabalari, kasb-hunar kolleji va akademik litseylar o'quvchilari uchun mo'ljallangan. Undan axborot texnologiyalari bilan qiziquvchi boshqalar ham foydalanishlari mumkin.

A

Abonent – Xizmat ko'rsatuvchi axborot obyekti (tizim, tarmoq, majmua) bilan o'zaro ishlash huquqiga ega qurilma, yuridik yoki jismoniy shaxs. Abonentning har qanday foydalanuvchidan farqi shundaki, u xizmat ko'rsatuvchi axborot obyekti foydalanuvchilari ro'yxatiga kiritilgan bo'ladi.

Adekvatlik – Har jihatdan teng, mos keladigan, aynan bir, o'xshash, mas., adekvat tushunchalar. Adekvatlik olingan axborot asosida qurilgan obrazning haqiqiy obyektiga qanchalik mosligini bildiradi.

AGP (Accelerated Graphic Port) – Grafikni tezlashtiruvchi port.

Ajratilgan liniya – Ixtiyoriy vaqtda axborot uzatish uchun ikki nuqtani raqam temasidan bog'lovchi telefon tarmog'i.

Akrobat Reyder – Bu dastur yordamida PDF (Portable Document Format – Ko'chma formatdagi hujjat) kengaytmali fayllarni o'qish, yo'llash (navigatsiya qilish), printer orgali chop etish imkoniyati mavjud. Ushbu fayllarni ko'pincha Internet tarmog'ida chet el universitetlari, kompaniyalar, firmalarning Web-saytlarida uchratish mumkin. Bu dastur 20 ga yaqin turdagi faylni o'qiy oladi. Ular tayyor formatlar, blanklar, anketalar, elektron kitoblar va hujjatlar bo'lishi mumkin. Akrobat Reyder dasturi bilan mualliflik huquqi, litsenziyalari, xalqaro kelishuvlar, nusxa olish qonun-qoidalari asosida PDF kengaytmali fayllarni ko'rish va printer orgali chop qilish ishlari bajariladi.

Algol – Elektron hisoblash mashinalari uchun programmalari tuzishdagi universal (umumiy) til va umumiy

simvolika. Bu algoritmik til 1960- yil yanvarda Parijda bo'lib o'tgan xalqaro konferensiyada qabul qilingan.

Algoritm – 783–850- yillarda yashab ijod etgan buyuk matematik vatandoshimiz Abu Abdullo Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy nomining lotincha Algoritm tarzida yozilishidan kelib chiqqan. Algoritmga turlicha ta'rif berish mumkin. Algoritm biror masalani yechish uchun bajarilishi zarur bo'lgan buyruqlarning tartiblangan ketma-ketligi. Algoritm matn, blok-sxema va dastur shaklda bo'ladi.

Algoritmik til – Sintaktik qoidalar va semantik aniqlovchilardan tashkil topgan, algoritmnlarni qat'iy bir qoida bo'yicha yozish imkonini beradigan, rasmiylashtirilgan til.

Algoritmning blok-sxemasi – Algoritmnlarni blok-sxema ko'rinishida ifodalaniishi, uni tasvirlashning juda qulay va eng ommalashgan vositalaridan biri hisoblanadi.

Alta-Vista dasturi – Bu dastur WWW ma'lumotlarni qidirishning zamonaviy serverlaridandir. Uning yordamida hatto rus tilida turli kodirovkada tayyorlangan ma'lumotlarni ham qidirish imkoniyati mavjud.

Amaliy dasturiy ta'minoti (ADT) – ADT foydalanuvchi aniq bir vazifalarni ishlab chiqishi va bajarishi uchun mo'ljallangan. ADT mos operatsion sistemalar boshqaruvida ishlaydi. Amaliy dasturiy ta'minot tarkibiga kiruvchilar: matn muharrirlari va profsessorlari, elektron jadvallar, mashina grafikasi tizimlari, ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi, integrallashgan dasturlar paketi. Ular bilan quyidagi vazifalarni bajarish mumkin: disklanga xizmat ko'rsatish; formatlash, axborotlar butunligini saqlanishini ta'minlash va ularni tiklash; fayl va katalog

(papkalar)ga xizmat ko'rsatish; arxivlar tuzish va ularni yangilash; kompyuter va diskning xotira sig'imlari haqidagi axborotlarni ifodalash; dasturlar orasida xotiralarni taqsimlash; turli xil rejim va formatlarda matn va boshqa fayllarni chop qilish; kompyuter viruslaridan himoya qilish.

Amaliy dasturlar paketlari (ADP) – U yoki bu muammoli sohaga tegishli bo'lgan masalalarni yechishga imkoniyat yaratuvchi, istalgan kompyuter dasturiy majmualar. Foydalannuvchi hal etayotgan vazifalarni avtomatlashtirishning kuchli qurolidir. U kompyuter axborotini qayta ishlash bo'yicha biror ishni qanday bajarayotganini bilish zaruriyatidan amalda to'liq ozod etadi.

Analiz (Tahlil) – Biror jarayon (predmet)ni tashkil etuvchilarining har qaysisi alohida fikran o'rganiladi. Obyektiv hodisa yoki voqealarni fikran tarkibiy qismlarga ajratish va ularning ayrim tomonlarini, xususiyatlarini o'rganish yo'li shu obyektini ilmiy asosda tadqiq qilish metodi va shun day tekshirishning o'zi, analiz bilan sintez har qanday murakkab hodisalarni tekshirishning asosiy usullaridir. Har tomonlama tahlil qilish, chuqur tekshirish, mas., badiiy asarni analiz qilish, moddaning tarkibini aniqlash, kimyoviy analiz, qonning analizi va hokazo.

Analogiya – Ushbu termin grekcha so'zdan olingan bo'lib, «moslik», «o'xshashlik» degan ma'noni bildiradi. Bevosita xulosa chiqarishning bir turidir.

Animatsiya – Bir necha tasvir yoki kadrlarni ko'rsatish orqali yaratiladigan harakat taqliidi.

Anonim (nonsiz) FTR server – Anonim FTR server tarmoq resurslarining ko'p tarqalgan ko'rinishlaridandir. Bunday serverlar ixtiyoriy foydalannuvchini xost kompyuteri, hatto, u unda ro'yxatdan o'tmagan bo'lsa ham

kirishga ruxsat beradi. Bunda foydalanuvchi nomi sifatida anonim ushbu va so'ngra ixtiyoriy parol kirtiladi. Ko'p hollarda foydalanuvchi paroli sifatida uning elektron pochta manzili kirtiladi. Anonim FTTR serverlar Internet aloqalarida dastur mahsulotlari va boshqa ma'lumotlarni ayriboshlashda muhim rol o'ynaydi.

Antivirus dasturlari – Kompyuter virusi yuqishining oldini oladi tezkor xotira va disklardagi viruslarni topib, davolaydi. Antivirus dasturlariga misol tariqasida: dedektor, doktor, revizor, doktor-revizor, filtrlovchi, vaksina, Norton antivirus, doktor veb, kasperskiy, Nod 32, Avast antivirus dasturlari va hokazolarni keltirish mumkin.

Aport – Rossiya davlati internet axborot qidiruv tizimlaridan biri bo'lib, rus va ingliz tilidagi serverlardan axborot qidiradi va so'rovlarni rus tiliga tarjima qilib beradi. Elektron manzili: <http://www.aport.com/>.

Apparat dasturiy interfeys – Apparat qismlari va dasturlar orasidagi o'zaro bog'lanish apparat dasturiy interfeys deb ataladi.

Apparat interfeysi – Kompyuterning turli texnik qismlari orasidagi o'zaro bog'lanish – apparat interfeysi deyiladi.

Arifmetik mantiqiy qurilma – Mantiqiy va arifmetik amallarni bajaradi.

ARPANET (Adaced Research Project Agency Network) – «Kelajagi portloq tadqiqot loyihalari agentligining tarmog'i» nomi bilan AQSH mudofaa vazirligining buyurtmasiga muvofiq 1960- yilning oxirlarida mazkur vazirlikning maxfiy bo'lgan topshiriqlarni uzatishda qo'llangan.

Arxivatorlar (ixchamlovchi dasturlar) – Disklarda axborotlarning ixcham(kichik hajmda) nusxalarni hosil qiladi, bir nechta fayllar nusxalarini bitta arxiv fayliga birlashtiradi. Hozirgi paytda keng tarqalgan WinRAR, WinZip, Winrar, Winace va boshqa dasturlar mavjud.

Arxivlash – Fayllar nusxasini kichik hajmda saqlab qolish arxivlash deb tushuniladi. Fayllarni arxivlash uchun maxsus arxivlovchi dasturlardan foydalaniladi.

Asosiy menyu – Bu operatsion tizimning eng kerak bo'ladigan asosiy papkalar, operatsiyalar va buyruqlar ro'yxatidir.

Asosiy xotira – Ma'lumotlarni saqlash va kompyuter-ning boshqa bloklari orasida tezkor-axborot almashinishini ta'minlaydi.

Assembler tili – Tushunchalari kompyuter me'moriy tuzilmasini aks ettiradigan quyi pog'ona dasturlash tili.

Atribut – Xususiyat, sifat yoki miqdor belgisi. U makondagi obyektmi ta'riflovchi (biroq uning qayerda joylashganligini ko'rsatish bilan bog'liq bo'lmagan) va uning noyob soni ya'ni aniqlovchisi bilan bog'liqlikda tasavvur qilinadi. Atribut tilda elementning parametrini yoki xususiyatini aniqlaydi. Shrift atributi deganda, shrift kattaligi, turi, rangi, yozilish usuli tushuniladi.

Autentifikatsiya – Autentifikatsiya xizmati axborot manbaini ishonchli identifikatsiyalashga mo'ljallangan. Masalan, biror xavf to'g'risida signal berilganda autentifikatsiya xizmatining vazifasi bu signalning manbaini haqiqatan ham signal uzatuvchi ekanligini tekshirishdan iborat bo'ladi.

Autokad dasturi – Kompyuter grafikasida loyihalashning avtomatlashtirilgan tizimi AutoCad dasturlaridan

foydalanib grafik axborotlarni kompyuterda bajarish o'rganiladi. Bunda foydalanish uchun ishlab chiqilgan AutoCading oxirgi versiyalari AutoCad – 2000 va AutoCad – 2002 dasturlaridan foydalaniladi.

Avtomatik o'quv tizimi (AO'T) – O'quv faoliyatini faollashtirishni ta'minlash uchun dasturiy va texnik hamda o'quv metodik vositalari to'plami.

Avtomatlashitirish – Jarayonlarni amalga oshirish uchun avtomatlashitirish vositalarini tatbiq etish. Inson mehnati unumdorligini oshirish maqsadida bu mehnatning bir qismini EHM (kompyuter) orqali bajariladigan tadbirlar tizimi. Bu ishlarni bajarish zamonaviy hisoblash texnikasi va ilmiy usullardan foydalangan holda amalga oshiriladi.

Axborot – Insonning sezgi organlari orqali qabul qilinadigan barcha ma'lumotlar majmuyi.

Axborot himoyasi – Qat'iy reglamentga ega o'zgaruvchan texnologik jarayon bo'lib, tashkilot axborot resurslarining butunligi, haqiqiyligi va qimmatbaho ma'lumotlarning konfidensialligi buzilishining oldini olish va buning natijasida tashkilotning boshqaruv va ishlab chiqarish faoliyatida real axborot xavfsizligini ta'minlashdir.

Axborot jamiyati – Axborot, aynigsa, uning oliy shakli bo'lmish bilimlarni oshirish borasida turli jarayonlar bo'yicha dunyoqarashni kengaytirish.

Axborot konfidensialligi – Axborotning subyektiv aniqlangan xarakteristikasi bo'lib, axborotga chegaralangan miqdordagi shaxslarning kirishiga ruxsati belgilaydi.

Axborot mahsulotlari (resurslari) – Inson tomonidan ishlab chiqilgan g'oyalalar, ularni ishlab chiqish imkoniyatini

beruvchi shakllar yig'indisi. Bu esa kitoblar, maqolalar, dissertatsiyalar, konstruktorlik tajriba hujjatlari va hokazolalar.

Axborot ta'minoti – Hujjat aylanmasi va hujjatlar shaklini ratsional holga keltirishni o'z ichiga olgan axborotni joylashtirish hamda tashkil qilish bo'yicha uslub va vositalar yig'indisi.

Axborot texnologiyasi – Axborotni to'plash, saqlash, izlash va unga ishlov berish hamda uni tarqatish uchun foydalaniladigan jami uslublar, qurilmalar, usul va jarayonlar.

Axborot tizimi – Axborotni to'plash, saqlash, izlash, unga ishlov berish va undan foydalanish imkonini beradigan tashkiliy jihatdan tartibga solingan axborot resurslari, axborot texnologiyalari va aloqa vositalari.

Axborot tizimining ta'minotlari – Axborot tizimlari g'aysi sohada qo'llanishidan qat'i nazar, axborot tizimining ta'minotlari deb yuritiladigan komponentlarni (tashkilot uchuvchilarni) o'z ichiga oladi.

Axborot xavfsizligi – Fugarolar, tashkilotlar va davlat manfaati yo'lida jamiyat axborot muhitini shakllantirish hamda undan foydalanish jarayonida uning ichki va tashqi tahdidlardan himoyalanganligini ta'minlovchi holat.

Axborot quroli – Axborot quroli deganda, axborot massivlarini yo'qotish, buzish yoki o'g'irlash vositalari, himoyalash tizimini yo'qotish, qonuniy foydalanuvchilar faoliyatini chegaralash, kompyuter tizimining ishlash tartibini buzish vositalari tushuniladi.

Axborot xossalari – Axborot bir nechta xossalarga ega, ular: haqiqiylik, holisilik (obyektivlik), aniqlik, to'liqlik, qimmatlilik, tushunarlilik, dolzarblilik, qisqalik, foydalana olishlik.

Axborot zaxirasi – Axborot texnologiyasini qo‘l-lashdan maqsad axborot zaxiralari (resurslar)dan foydalanishda mehnat mashqqaqatini kamaytirishdir.

Axborotdan nusxa ko‘chirish – Axborot tashuv-chidagi axborotning nusxasini boshqa axborot tashuv-chiga ko‘chirish tushuniladi.

Axborotga sanksiyasiz kirish – Axborotga kirish huquqi bo‘lmagan holda kirish.

Axborotlashgan jamiyat – Jamiyatning ko‘pchilik a‘zolari axborot, uning oliy shakli bilimlarni boyitish, saq-lash, qayta ishlash va amalga oshirish bilan band bo‘lgan jamiyat.

Axborotlashtirish – Yuridik va jismoniy shaxslarning axborotga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish uchun axborot resurslari, axborot texnologiyalari hamda axborot tizimlari-dan foydalangan holda sharoit yaratishning tashkiliy, ijtimoiy iqtisodiy va ilmiy-texnik jarayoni.

«Axborotlashtirish to‘g‘risida»gi qonun – O‘zbekiston Respublikasining ushu qonuni 2003-yil 11-dekabrda qabul qilingan.

Axborotni blokirovka qilish – Axborotning egasi yoki qonuniy foydalanuvchisi boshqalarning kiritishiga imko-niyat bermaydigan qilib, uni berkitib(yopib) qo‘yilishi tushuniladi.

Axborotni kodlashtirish – Axborotni xabarga aylan-tirish usullaridan biri, uni moddiy tashuvchi vositaga yozish. Bunday yozish jarayoni kodlashtirish deb yuritiladi.

Axborotni yo‘qotish (o‘chirish) – Axborotni kom-pyuter axborot tashuvchilari (xotira)dan butunlay yoki qisman o‘chirib tashlash tushuniladi.

Axborotni o‘zgartirish (modifikatsiya qilish) – Uning boshlang‘ich holatiga o‘zgartirish kiritish tushuniladi.

B

Banner – Veb-sahifadagi reklama xarakteridagi tasvir yoki matn bloki. U reklama beruvchining Veb-saytiga yoki mahsulot yoxud xizmat turi atroflicha bayon qilingan sahifalarga giper murojaatdan iborat. Bannerlar tashrif-chilarni jalb etish uchun, imidjni shakllantirish yoki shu resursni siljtitish uchun turli Internet resurslarda joylash-tiriladi.

Bayt – Sakkizta bitdan iborat axborot uzunligi bir baytmi tashkili etadi. Demak, bir bayt birgina belgi qiymatini 256 variantda kodlash imkoniyatini beradi, chunki 2⁸ = 256. Ikkiilik sanog sistemasiidagi Bayt Klod Shennon tomonidan taklif qilingan. Ma‘lumotni o‘lchashning katta birtliklari, ya‘ni bayt bilan bog‘liq bo‘lgan kilobayt, megabayt, gega-bayt, terabayt, perabayt va hokazolar mavjud.

Belgilar – Predmetlarni bir-biridan farq qiluvchi hamda ularning bir-biriga o‘xshashligini ifoda qiluvchi xususiyatlar.

Bent – Tasvir ustida bajarilgan oxirgi amalni bekor qilish.

Bepul dasturiy ta‘minot – Bepul tarqatiladigan va ayrim hollarda pulga sotib olingan dasturiy ta‘minot kabi ishlay oladigan dasturiy ta‘minot. Bepul dasturiy ta‘minot ayrim dasturchilar, tashkilotlar va davlat muassasalari tomonidan yaratiladi.

Beysik tili – «Beginner’s All-purpose Symbolic Instruction Code» (boshlovchilar uchun ko‘p maqsadli belgili o‘rgatuvchi kod) so‘zlarining qisqartmasidan olingan. Beysik tili yuqori darajali algoritmik dasturlar sinfiga mansubdir.

Bibliografik ma'lumotlar bazasi – Kutubxonada saqlanayotgan kitoblar, jurnallar va boshqa hujjatlar tavsifini aks ettirgan yozuvlardan iborat ma'lumotlar bazasi.

Bilimlar bilan ishlash tizimlari – Tayyor axborotlar bilan ishlabgina qolmay, balki xodimlar foydalanishi uchun yangi bilimlar va ma'lumotlarni integrallashgan holda ishlash imkoniyatini beradi. Bu tizimlar aqliy mehnat bilan shug'ullanuvchi xodimlar uchun mo'ljallangan bo'lib, ular ikki xil ko'rinishda bo'ladi: bilimlar bilan ishlash tizimlari va ofis tizimlari.

BIOS xotira (BIOS – Base Input-Output System) – Axborotni dastlabki kiritish-chiqarish tizimi. Aynan bu tizim kompyuterni yuklash va diagnostika qilish bo'yicha dastlabki operatsiyalarni amalga oshiradi. Kompyuter yuklangach, BIOS kompyuter va uning barcha elementlarining holatini testdan (nazoradan) o'tkazib, keyin boshqarishni markaziy protsessorga o'tkazadi. Ona plitada BIOS alohida mikrosxema ko'rinishida joylashtirilgan bo'ladi.

Bir dasturli rejim – Kompyuterning barcha resurslari faqat bir dasturga xizmat qiladi.

Bit – Kompyuterdagi ma'lumot birligi. U 0 yoki 1 qiymat qabul qiladi. Lekin kompyuter buyruqlari bayt bilan ishlaydi. Ketma-ket sakkiz bit bir baytdan iborat.

Bitli massiv, raster – Tasviridagi har bir nuqtaning rangini tasvirlovchi berilganlarni saqlaydigan, belgi yoki grafik tasvirlarni bitlar massivi shaklida tasvirlash.

BOD – Ma'lumotlarni uzatish tezligi. U 1 bit/s ga teng.

Bosh sahifa – Veb-saytning boshlang'ich sahifasi. Odatda murojaatlar aynan veb-saytning bosh sahifasiga

qilinadi, shuning uchun ushbu sahifaga tashrif buyuruvchilar soni xohlagan boshqa sahifaga qaraganda ko'proq. Bosh sahifa (vab-sayt yuzi) bo'yicha foydalanuvchi quyerdan ekanligi va saytning boshqa sahifalarida nimalarni ko'rish mumkinligi haqida tasavvur oladi (ba'zan bosh sahifa birinchi va yagona bo'ladi).

Boshqarish qurilmasi – Dasturning bajarilish jarayonini tashkil etuvchi qurilma.

Brandmauer – Tarmoqlararo to'siq, «Firewall» atamasining sinonimi (nemis tilidan «olovli devor» deb tarjima qilinadi). 1. Tashqaridan kompyuterga yoki kompyuterlar guruhidan erkin foydalanishni nazorat qiluvchi va hujumlarni bartaraf qiladigan dastur va apparat ta'minotining birkmasi. Asosan Internet tarmog'iga ulangan mahalliy tarmoqda ishlatiladi. 2. Xususiy (Intranet) tarmoq qilinadigan noxush tajovuzlarni bartaraf qilish uchun, ikki va undan ortiq tarmoqlar orasida muhofaza to'sig'ini hosil qiladigan hisoblash tizimi yoki tizimlar birkmasi. Brandmauer bir tarmoqdan boshqa tarmoqqa paketlarni uzatishda virtual to'siq bo'lib xizmat qiladi va Internet hamda Internet tarmoqlari orasida ma'lumotlar oqimini kuzatib turadi. 3. Mazkur tarmoq xavfsizligiga boshqa tizim va tarmoqlardan bo'layotgan tahdidlardan muhofazalash usuli. Bu usul tarmoqdan erkin foydalanishni markazlashirish va uni nazorat qilish orqali apparat – dasturiy vositalar yordamida amalga oshiriladi.

Brauzer – Internet tarmog'ini rivojlantirib, unda foydalanishning yangi imkoniyatlari, ya'ni ma'lumotlarni tez va aniq ko'rish, ma'lumot almashinishning yengillashishini ta'minlovchi dasturlar. Har bir brauzerning turli

imkoniyatlari mavjud. 1. Gipernatni o'qish, veb-resurslarda navigatsiyalash va ko'rib chiqish dasturi. Veb-brauzeri gipernatni o'qishdan tashqari, tovushni va video ma'lumotlarni qaytadan chiqarish, ya'ni, gipernatni qayta chiqarish, tarmoqning boshqa kompyuterlari bilan ulanishni o'rnatish va ularda ishlayotgan serverlarga veb-hujjatlarga so'rovlarini yuborish, tarmoqni boshqa foydalanuvchilari bilan mulqot tashkil qilish va uni quvvatlash kabi qo'shimcha imkoniyatlarga ega bo'lishi mumkin. Eng ommaviy tarqalgan veb-brauzerlar – Microsoft Internet Explorer va Netscape Navigator. 2. Obyektga yo'naltirilgan dasturiy tizimlarda sinfiy shajarani tahlil qilish uchun ishlatiladigan vosita.

Bufer – Ma'lumotlarni vaqtincha saqlash uchun ishlatiladigan kompyuterning tezkor xotira yacheykalari ning bir qismi.

Bul algebrasi, mantiqiy algebra – Matematikaning mantiqiy o'zgaruvchilar bilan ishlash usullarini o'rganuvchi bo'limi. O'zgaruvchilari faqat «haqiqiy» yoki «yo'lg'omy qiymatlar qabul qiladi. Mantiqiy algebraning asosiy amallari diz'yunksiya (YOKD), kon'yunksiya (VA), inkor qilish (YO'Q).

Bo'sh operator – Bo'sh operator hech qanday harakatni bajarmaydigan operator tushuniladi. Bo'sh operatorga operator mavjud bo'lishi kerak bo'lgan joydagi yozuvning yo'qligi to'g'ri keladi.

D

Dasturiy interfeys – Dasturlar orasidagi o'zaro bog'lanish.

Dasturiy ta'minot – Axborot tizimi ishini amalga oshirishda zarur bo'lgan kompyuter dasturlari to'plami.

Dasturlash – Masalaning yechish algoritmini mashina tushunadigan tilida yozilishi, ya'ni aniq tartiblangan kema-ketliklarda bajariladigan dasturlarda ifodalaniishi.

Dasturlash tillari – Kompyuter bilan mulqot qilish uchun kompyuter «tili»ni bilish ham talab qilinadi. Kompyuter tushunadigan «tili» dasturlash tili deyiladi. Biron masalani kompyuterda yechish uchun, avvalo, uning algoritmini tuzilishi va bu algoritmini kompyuter tushunadigan ko'rasmalar va qonun-qoidalar asosida yozilishi kerak bo'ladi. Kompyuter uchun dastur tuzish jarayoni dasturlash, dasturni tuzadigan kishi dasturchi deb ataladi.

Dasturni sozlash – Dasturda xatolarni topish va tuzatish jarayoni. Ko'p hollarda tuzilgan dasturlarda xato yoki noaniqliklar bo'lishi mumkin. Bunday paytlarda dasturlarni nazorat yoki diagnostika qilish asosida yo'l qo'yilgan kamchiliklar bartaraf qilinadi.

DATE buyrug'i – Kompyuterda yil, oy va kun haqida ma'lumotlar kiritish uchun DATE buyrug'i qo'llaniladi.

Defragmentatorlar – Qattiq disk bo'ylab parchalanib saqlanayotgan fayl qismlarini bir joyga to'plab tartiblovchi utilitar.

Diagramma – Son qiymatga ega bo'lgan jadval ma'lumotlari haqida tasavvur hosil qilishning qulay usuli.

Disk Copy buyrug'i – Disk nusxasini olish uchun qo'llaniladi.

Distributiv – Ishlab chiqaruvchi tomonidan taqdim etilgan shakldagi dastur mahsuloti. Distributiv diskda, odatda, dasturning o'zi hamda dasturni qattiq diskka o'rnatish va uning parametrlarini o'rnatish uchun bo'lgan dasturlar mavjud bo'ladi.

OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI
1-FILIALI

OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI

DDL tili – (Ma'lumotlarni ta'riflash tilida) sxemani ta'riflash tili, obyektlarni jadvallar, indekslar, tasavvurlar va hokazoni yaratuvchi buyruqlardan iborat.

Deduksiya – Logikada umumiy holatdan juz'iy xulosani chiqarish. Aksi – induksiya.

Dezinformatsiya – Notog'ri informatsiya berish, gasddan yolg'on xabar tarqatib jamoatchilikni chalg'itish.

Delfi 7 dasturlash tili – Bu dasturlarni qayta ishlash muhiti bo'lib, 32 – razryadi Windows operatsion sistemasida ishlaydi. Unda obyekti dasturlash tili bo'lgan Object Pascal mujassamlangan. Delfi vizual loyihalar, turli holat protseduralarini qayta ishlash va dasturlarni qayta ishlashda vaqtdan yutish hamda boshqalarni o'z ichiga oladi.

Differentsiatsiyalash – Bir-biridan farq qilish, tabaqalash yoki tabaqalanish, tabaqalarga, tarkibiy elementlarga ajratish yoki ajralish. Jarayonlarni ayrim-ayrim baholab xulosa chiqarish.

Disklarni formatlash – Faylli tizimning asosiy tushunchalaridan biri klaster hisoblanadi. Diskli soha kengliklarini bevosita faylni joylashtirish uchun ajratilgan minimal hajmi klaster deyiladi.

DCL (Ma'lumotlarni boshqarish tili) – Foydalanuvchiga ma'lum obyektlar ustida ma'lum ta'sir o'tkazishga ruxsat berish yoki bermaslikni aniqlovchi vositalardan iborat.

Doimiy xotira – Kompyuterni ishlatish jarayonida o'zgartmaydi, ya'ni doimiy ma'lumotlarni saqlaydi.

Domen – Lotincha so'zdan olingan bo'lib, «hudud» degan ma'noni bildiradi. Domen manziliida aksariyat hollarda axborot resursi egasining faoliyat turi va qaysi mamlakatga tegishli ekanligini aniqlovchi nom. Shuningdek, axborot resursining qaysi mamlakatga tegishli ekanini

anglatuvchi ikki harfli nomlar kiritilgan. Masalan, Uz (O'zbekiston), Ru (Rossiya), Ua (Ukraina), Uk (Angliya), Jp (Yaponiya), De (Germaniya), US (AQSH) va hokazo.

Drayver – Boshqaruvchi dastur. Odatda, u bajarilayotgan dasturning ma'lum moslama bilan o'zaro ishlashini ta'minlovchi va undan qulay foydalanishga yordam beruvchi amalli tizimning dasturidir.

DSL tili (Ma'lumotlarni o'zgartirish tili) – bu jadvallarda qanday qiymatlar saqlanishini istagan daqiqada aniqlovchi buyruqlar majmuasi.

DVD (Digital Versatile Disk) – Universal raqamli disk tashqi ko'rinishidan DVD disklar CD disklardan farq qilmaydi. DVD disklar axborot sig'imi turiga qarab turlicha bo'ladi.

DVD diskarning axborot sig'imi – Ushbu diskarning axborot sig'imi turiga qarab quyidagicha bo'lishi mumkin:

DVD-5 – bir tomonli, bir sathli, hajmi 4,7 gegabayt;

DVD-9 – bir tomonli, ikki sathli, hajmi 8,5 gegabayt;

DVD-10 – ikki tomonli, bir sathli, hajmi 9,4 gegabayt;

DVD-14 – ikki tomonli disk, bir tomoni bir sathli,

ikkinchi tomoni ikki sathli, hajmi 13,24 gegabayt;

DVD-18 – ikki tomonli, ikki sathli, hajmi 17 gegabayt.

E

E-meyl (E-mail) elektron pochta – Elektron pochta kompyuter tarmog'i. Internet va boshqalar yordamida xabarlarini uzatish usuli. Axborotlar elektron pochta qutisiga tushadigan va undan so'ng o'z manziliga yetkaziladigan, foydalanuvchilar uchun maxsus aloqa xizmati turi.

EHM – Elektron hisoblash mashinasi. EHM faqat sonli shakldagi ma'lumotlarni qayta ishlaydi. Barcha ma'lumotlar, xususan, dasturlar, matnlar, ovozlari, rasmlar EHM (kompyuter)da qayta ishlanish uchun u albatta sonli shaklga almashinishi lozim.

Ekran tahrirchisi – Display ekranida matnlarni akslantirish va tahrirlashni ta'minlovchi, matn tahrirchisi.

Ekspert – Bu muayyan predmet sohasida samarali yechim topa oluvchi mutaxassis.

Ekspert o'quv tizimlari (EO'T) – O'quv funksiyalarni amalga oshirib, biror fanning yetarli aniq tor sohasi bo'yicha bilimlarni o'z ichiga oladi. EO'T o'rganilayotgan fan sohasi masalalarini yechishning strategiya va taktikasini izohlash imkoniyatini beradi.

Ekzeshnik – Ishga tushirilishga tayyor bo'lgan fayl.

Elektron darsliklar (ED) – bilim oluvchilarning tasavvurini kengaytirishga, dastlabki bilimlarni rivojlantirishga va chuqurlashtirishga, qo'shimcha ma'lumotlar bilan ta'minlashga mo'ljallangan elektron o'quv adabiyotlari. EDlarda ovoz, animatsiya va grafik tasvirlar ham qo'llanilishi mumkin. ED ma'ruzalarda turli didaktik materiallar, o'zi nazorat qilish uchun testlar va savollar, tayyorlanganlik darajasiga muvofiq turlicha murakkablikdagi topshiriqlar taqdim qilinishi mumkin. EDDan foydalanib, ilmiy ishlar, ilmiy seminarlar va konferensiyalar uchun tegishli materiallar tayyorlash imkoniyati bor.

Elektron hujjat – Inson tomonidan mos ravishdagi dastur va asbob vositalari orqali qabul qilinadigan, kompyuter xotirasidagi berilganlar majmuisi.

«**Elektron hujjat aylanishi to'g'risida**»gi qonun – O'zbekiston Respublikasi ning 2004-yil 29-aprelda qabul

qilingan qonuni. O'zbekiston Respublikasi vazirliklari, davlat qo'mitalari, uyushmalari, agentliklari, kompaniyalari va boshqa markaziy davlat idoralari apparatlarida ish yuritish va jiro nazoratini tashkil etishni tartibga soladi. «Elektron hujjat aylanishi to'g'risida»gi qonun 19 ta moddadan iborat. Har bir moddasi shartli bilan berilgan.

Elektron hukumat – Ushbu tizimni turlicha ta'rifi mavjud bo'lib, uning asl mazmun va mohiyatini bilish maqsadida bu ta'riflardan bir nechtasini keltirish mumkin:

Davlat boshqaruvida axborot kommunikatsiya texnologiyalari.

Davlat tomonidan xizmat ko'rsatish jarayonlarini avtomatlashtirish.

Davlat boshqaruvida axborotga ishlov berish, uni uzatish va tarqatishni hamda hokimiyatning barcha darajalaridagi davlat organlarining fuqarolarga xizmat ko'rsatishni elektron vositalar asosida tashkil etish va hokazo.

Elektron jadvallar – Qayta ishlashga mo'ljallangan Axborot dasturlar paketlari (ADP). Jadvaldagi ma'lumotlar ustun va qator kesishgan joydagi katakchalarda saqlanadi. Bu katakchalarda sonlar, ramziy ma'lumotlar va formulalar saqlanishi mumkin.

Elektron kutubxona – Axborot tizimi. Unda hujjatlar (maqolalar, monografiyalar, hisobotlar, referatlar va shu kabilar), odatda, mashina tashuvchilarida elektron to'la matni shaklida saqlanib va foydalanuvchilarga ularning so'rovlari bo'yicha avtomatlashtirilgan tizimga taqdim qilinadi. Ko'pincha bu hujjalarning matnlari foydalalanuvchilarga elektron pochta orqali uzatiladi.

Elektron ofis – Asosiy faoliyati qaror qabul qilish maqsadida axborotni qayta ishlash bo'lgan idora. Idora

boshqaruv ishini tashkili etish shakli bo'lib, uning ishini takomillashtirish boshqaruv apparati ishining samaradorligini oshirishdan iborat.

Elektron pochta – Internet xalqaro tarmog'ining asosini «Elektronic mail (E-mail)» elektron pochta xizmati tashkili qiladi. Elektron pochta xuddi odardagi pochta deb bo'lib, faqat bunda xatni qog'ozga emas, balki kompyuter klaviaturasidan harf va so'zlarni terib elektron signalning ma'lum tartibidagi ko'rinishiga keltiriladi. Elektron pochta maxsus dastur bo'lib, uning yordamida dunyoning ixtiyoriy joyidagi elektron manzilga xat, hujjat, ya'ni ixtiyoriy faylni jo'natish va qabul qilib olish mumkin. Har bir elektron pochta tarmog'iga ulangan kompyuter o'zining alohida manziliga ega va har bir foydalanuvchi o'zining pochta manziliga ega bo'lishi mumkin. Bir foydalanuvchi bir nechta elektron manzilga ega bo'lishi mumkin. Ammo bir manzil har xil foydalanuvchiga qo'yilishi mumkin emas. Elektron manzilni provayder beradi. Elektron manzil @ belgisi bilan ajratilgan ikki qismdan iborat, ya'ni manzilgoh @ foydalanuvchi nomi.

Elektron raqamli imzo (ERI) – Elektron hujjatdagi mazkur elektron hujjat axborotini elektron raqamli imzoning yopiq kalitidan foydalangan holda maxsus o'zgarish natijasida hosil qilingan hamda elektron raqamli imzoning ochiq kaliti yordamida elektron hujjatdagi axborotda xato yo'qligini aniqlash va elektron raqamli imzo yopiq kalitining egasini identifikatsiya qilish imkonini beradigan imzo.

«Elektron raqamli imzo to'g'risida»gi qonun – O'zbekiston Respublikasining «Elektron raqamli imzo to'g'risida»gi qonuni 2003-yil 11-dekabrda imzolangan. Bu qonun iqtisodiyot, boshqaruv va boshqa sohalarida

hujjat yuritishning yangi texnologiyasiga o'tish uchun huquqiy yo'riqnomaga vazifasini bajaradi. Qonun 22 ta maddadan iborat. Har bir maddasi sharhi keltirilgan.

«Elektron tijorat to'g'risida»gi qonun – O'zbekiston Respublikasining ushbu qonuni 2004-yil 29-aprelda qabul qilingan. Qonun 14 ta maddadan iborat bo'lib, sharhi bilan berilgan.

Excite – Eng ommaviy axborot izlash tizimlaridan bo'lib, elektron manzili: <http://www.excite.com/>.

F

Faks-modem – Kompyuterga ulangan holatida boshqa faks-modemga yoki faks mashinaga faksimil tasvirlarni uzatish va qabul qilib olish.

Faktorial – «Faktorial» inglizcha so'z bo'lib, «factor» – «ko'paytuvchi» so'zidan kelib chiqqan. Bir sonidan tayin biror n-natural songacha bo'lgan barcha natural sonlarining ko'paytmasi $n! = 1 \cdot 2 \cdot 3 \cdot \dots \cdot n$. 1 – faktorial belgisi.

Fayl – Xotirada saqlash qurilmasida saqlanadigan yagona bir butun bo'lgan, istalgan ma'lumotlar. Fayl so'zi ingliz tilidan olingan bo'lib rus tilida papka, o'zbek tilida jild degan ma'noni anglatadi. Demak, fayl – bu axborotni tashqi tashuvchilardagi nomlangan qiymatlar yig'indisidir.

Fayl ismi kengaytmasi – Nuqtadan keyin joylashadigan, fayl ismining bir qismi. Masalan, «def.exe» fayl ismidagi «exe» qismi kengaytma bo'lib hisoblanadi. Kengaytma, fayllar oltasini belgilash uchun ishlatiladi. Odarda operatsion tizim, kengaytmaga qarab fayl bilan nima qilish mumkinligini bilib oladi. Masalan: BAS – BASIC tilidagi fayl, BAT – ishga tushirilayotgan buyruq

fayli, COM – tushirilayotgan DOS fayli, DAT – matn fayli, DOC – MS Word formatidagi fayl, ERR – xatolarni yozuv fayli, EXE – tushirilayotgan fayl, GIF – grafik fayl, HLP – yordam fayli, HTM – Internetda ishlatiladigan HTML formatidagi fayl, INI – initializatsiya fayli, OVL – overley fayli, PS – Postscript formatidagi fayl, RAR – arxiv fayli, SYS – operatsionnoy tizim fayli, XLS – MS Excel formatidagi fayl.

Fayl viruslari – Ushbu virus bajariluvchi fayllarga joylashib oladi. Virus – dasturning kodi muayyan bajariluvchi faylda bo‘lib, bu fayl virusi bilan zararlangan hisoblanadi.

Fayllarni uzatish xizmati – Internet xizmatlari orasida fayllarni qabul qilish va uzatish ancha katta foizni tashkil etadi. Dastur fayllarni, katta hajmdagi hujjatlarni (masalan, kitoblarni) hamda arxiv ma'lumotlarni fayllar ko'rinishida uzatishga zaruriyat tug'itadi.

Faylli sistema – U yoki bu axborot tashuvchilarda fayllarni saqlovchi vosita. Bu vositalarga qattiq disklar, disketlar, lazeri disklar va flesh-xotiralarni keltirish mumkin.

Filtr – Sistemali dastur yoki buyruq bo‘lib, berilganlarni kiritish qurilmasidan o‘qib tartiblaydi va dastur yoki buyruqda aniqlangan qurilmalarga yo'naliradi.

Finger – Bu internetning buyruq'i bo‘lib, u foydalalanuvchilar haqida ma'lumotlar olish uchun xizmat qiladi.

Flash texnologiyasi – Brauzerdan mustaqil va aloqa kanalining ixtiyoriy kengligi quvvatlaydigan vektorli grafika va animatsiya texnologiyasi.

Flesh-xotira – Bu energiyaga bog'liq bo'lmagan, yozish va o'qish imkoniyatlari mavjud bo'lgan ixcham xotira turi hisoblanadi. Flesh xotiradagi axborot ishonchli

va uzoq muddat saqlanishi mumkin. Flesh xotiraning axborot sig'imi 1, 2, 4, 8, 16, 32 gegabayt va undan ortiq bo'lishi mumkin. Flesh-xotira kompyuterga USB porti orqali ulanadi. Hozirgi davrda diktofonlarda, pleyerlarda, mobil telefonlarda, raqamli fotoapparatlarda va boshqa qurilmalarda flesh-xotira keng qo'llanilmoqda.

Format – Axborot obyektining tuzilmasi. Format, ma'lumotlarni turi obyektlarda, ya'ni, jadvallarda, MB da, printerlarda, ma'lumotlar bloklarida joylashish va ifodalash usullarini belgilaydi. Manzillar, kodlar, buyruqlar, sahifalar, qatorlar va hokazolarning formatlarini keltirish mumkin. Kompyuter bilan bog'liq barcha tushunchalar o'zining formatiga egadir.

Formatlash – Xotira qurilmasini, odarda diskni yozishga vao'qishga tayyorlash. Diskni formatlashda, operatsion tizim diskda joylashgan barcha axborotlarni o'chiradi, diskni hamma sohalarning ishonchligini tekshiradi, yaroqsiz sohalarni belgilaydi va manzillar jadvalini yaratadi. Bular, keyinchalik diskdagi axborotni topish uchun ishlatiladi.

Formula – Biror da'voni (jumla, fikrni) anglatuvchi har qanday simvolik yozuv.

Fortran tili – IBM firmasi tomonidan yaratilgan. Fortran atamasini so'zma-so'z tarjimasi FORMule TRANslation – formulani o'zgartirish degan manoni anglatadi. Algoritmik dasturlash tillaridan biri.

Forum – Saytda suhbatlashish uchun uskuna. Forumdagi xabarlar pochta xabarlariga nimasi bilandir o'xshash, ularning har biri muallifga, mavzuga va xususiy mazmunga ega. Ammo xabarni forumga yuborish uchun hech qanday qo'shimcha dastur kerak emas, shunchaki, saytda tegishli shaklni to'ldirish kifoya.

Fotoshop – Fotoshop Windows muhitida ishlovchi Makintosh va IBM PC kompyuterlari uchun mo'ljallangan elektron ko'rinishdagi fotosavirlarni tahrir qiluvchi dastur.

Foydalanuvchi interfeys – Insonning dastur bilan va dasturning inson bilan o'zaro mulqoti foydalanuvchi interfeysi deyiladi.

Freym – 1. Grafik va nashriy ishlanmalarda – matn yoki tasvir joylashtiriladigan to'g'ri burchakli maydoncha.

2. Aloqada – uzatilayotgan axborot paketi.
3. Video va animatsiyada – tasvirlar ketma-ketligidagi tasvirlardan biri.
4. HTML tilida – teg. ekranda bir necha mustaqil sohalarni shunday ajratib beradiki, ularning har biriga o'zining veb-sahifasini yuklash imkoni bo'ladi. Odatda, foydalanuvchi ekranining qaydlangan yerida logoturini yoki navigatorini joylashtirish uchun ishlatiladi.

FTP (File Transfer Protocol) – Fayllarning almashish protokoli. Katta hajmdagi fayllarni almashinishini maxsus FTP orqali bajarish maqsadga muvofiq. Bularga murojaat qilish uchun Internet brauzerining buyruq sohasiga kerakli elektron manzil kiritiladi.

G

GAN (Global-Area Network) – Global (xalqaro, qit'alararo) tarmoq bo'lib, butun dunyo tarmoq foydalanuvchilarini qamrab oladi.

Gegabayt – 2^{10} megabayt yoki 1024 megabaytga teng.

GIF (Graphics Interchange Format) – Grafik axborot almashish formati, GIF formati. Internetda eng keng tarqalgan grafik format.

Giperishoratar – Internetda Veb-hujjatlarni bir-biri bilan bog'laydi. Giperishoratar yordamida sahifaning serve yoki boshqa serverning o'zga resurslariga o'tish mumkin.

Giperishoratar ikki qismdan iborat bo'ladi. Birinchisi ko'rsatkich deb atalib, sahifada joylashgan bo'ladi. Ikkinchisi hujjatda ko'rinmas bo'lib, u giperishorating manzil qismi (URL) deyiladi.

Giperko'rsatkichlar – Har qanday fayl bilan aloqa bog'lash, har qanday hujjatlarni tez izlash, ochish, o'qish uchun xizmat qiluvchi Web paneli, suratlarini siqib qisqartirishdir.

Gipermatn – Matni kompyuterda ifodalash shakli. Unda ajratilgan tushunchalar, obyektlar va bo'limlar orasidagi ma'noli bog'lanishlar avtomatik tarzda qo'llab-quvvatlanadi. Gipermatn, global ulanish xizmatida WWW sahifalarini yozishda keng ishlatiladi.

Gipermedia – Matndan tashqari boshqa shakldagi ma'lumotlarni ham beruvchi hujjatlar. Matmlar bilan bir qatorda WWW hujjatlarida rangli harakatdagi tasvirlarni, turli video kliplarni, umuman, multimedia ma'lumotlarini ham ko'rish mumkin.

Giperurojaat – 1. Faol (rang bilan ajratilgan) matn, veb-sahifadagi tasvir yoki tugma. Uni chertish (giperurojaatni faollashtirish) boshqa sahifaga o'tishga yoki galdagi sahifaning boshqa qismiga o'tishga olib keladi.

2. Gipermatn shaklida amalga oshirilgan hujjardagi yozuvlar yoki turli hujjatlar orasidagi aloqa. Aloqa joyi biror usul bilan (masalan, rang bilan, shrift bilan va hokazolar bilan) ajratiladi.
3. Amalga oshiruvchi dastur.

Gipoteza – O'rganilayotgan hodisaning sabablari va xususiyatlarini tushuntiradigan asosi taxmin tarzidagi bilim

shakli. Muammoni hal etish jarayonida ma'lum bir gipotezalar ligari suriladi va asoslanadi.

Gistogramma – Tasviridagi ranglar miqdori haqidagi ma'lumotlar darchasi.

Global tarmoqlar – Turli mamlakatlar yoki qit'alarda joylashgan abonentlarni birlashtiradi. Mazkur tarmoq abonentlar o'rtasidagi aloqa telefon, radio aloqa va kosmos aloqa tizimi negizida amalga oshiriladi. Global, mintaqaviy va lokal kompyuter tarmoqlarining birlashuvi ko'plamli iyerarxiyani tashkil etib, umumjahon axborot resurslarini birlashtirish va ulardan kollektiv ravishda foydalanish imkoniyatlarini yaratadi. Internet (international network) – yagona standart asosida faoliyat ko'rsatuvchi jahon global kompyuter tarmog'i ham global tarmoqdir.

Gorxer dasturi – Internetning tavsiyanoma ko'rishidagi turli resurslariga kirishni ta'minlovchi dastur.

Google – Eng yirik internetda axborot qidiruv tizimlaridan hisoblanib, u jahondagi deyarli hamma tillarda axborot izlash imkoniyatiga ega. Elektron manzili: <http://www.Google.com/>.

Gradus – Burchaklarning o'lchov birligi, ya'ni u to'g'ri burchakning 1/90 qismiga teng bo'lgan burchak. Bir gradus burchak 1° bilan belgilanadi. Gradus grekcha «gradus» – qadam, bosqich degan ma'nolarni bildiradi.

H

«Halqa» topologiyasi – Kompyuter tarmoqlarining bunday topologiyasida har bir kompyuter aloqa liniyalari orqali boshqa ikkita bilan ketma-ket ulanib tarmoq halqa

ko'rinishida bo'ladi. Bunda kompyuter o'ziga ulangan qo'shni kompyuterdan ma'lumot olib, agar ma'lumot uning o'ziga mo'ljallangan bo'lmasa, uni keyingi kompyuterga uzatadi. Agar ma'lumot uning o'ziga yuborilgan bo'lsa, bu ma'lumot kompyuterining o'zida qoladi.

Himoya kodi – Berilgan dasturga ajratilgan, xotiraning hamma bloklarini himoya kaliti bilan ustma-ust tushishi kerak bo'lgan, dasturga taqdim etiladigan kod.

Himoyalangan fayl – Yozuvlarga kirish uchun parolni talab qiluvchi fayl.

HTML (Hyper Text Markup Language) – Giper-matnlarni belgilash tili. Ma'lumotlarning Veb tuzilmasi deganda, hujjatdagi obyektlarning mazmunini ochish uchun boshqa hujjatga o'tkazuvchi murojaatlar mavjud bo'lgan tuzilma (hujjat) tushuniladi. Ma'lumotlarning bunday tuzilmaga ega bo'lgan ko'rinishi gipermatn deb yuritiladi.

HTTP (Hyper Text Transfer Protocol) – Giper-matnни uzatish protokoli.

Http, ftp, gopher, wais – tipik protokollar.

Huquqiy ta'minot – Axborot tizimini yaratish va funksionallashtirishni tartibga soluvchi huquqiy me'yorlar yig'indisi.

I

IBM firmasi – International Business Machines Corporation (IBM) 1970-yilda shaxsiy kompyuterlarning yuziga kelishiga sabab bo'lgan firma. 1981-yilda o'z o'rnini topgan IBM PC kompyuteri o'z samarasini berdi.

Identifikator – Nom, harf va raqamlar ketma-

ketiligidan tashkil topadi va albatta harfdan boshlanishi shart. Identifikator dasturda o'zgaruvchilarni, o'zgaruvchi (const)larni, turlarni, protseduralarni va funksiyalarni nomlash uchun qo'llaniladi.

ICAMM (Internet Corporation for Assigned Names and Mambers) – Dunyo bo'yicha Internetda kengaytirilgan domen nomlarini berish bilan shug'ulllanuvchi korporatsiya.

Ikkitlik sanog sistemasi – Faqat 0 va 1 raqamlari orqali tuzilgan sanog sistema. Kompyuter xotirasida berilganlarni tasvirlashning asosiy tizimi. Asosi 2 bo'lgan sanog tizimi.

Indeks – Bir xil simvollar(belgilar) bilan belgilangan ifodalarni farqlantirib turadigan son, harf yoki boshqa belgi. Lotincha «index» so'zi «ko'rsatkich» ma'nosini anglatadi. Biror narsaning ko'rsatkichi, ro'yxati, mas., chiqayotgan kitoblar indeksi, tovarlar indeksi. Biror iqtisodiy hodisaning tadrijiy o'zgarishlarini protsentlar bilan ko'rsatadigan raqam ko'rsatkichi, mas., mehnat unumdorligi indeksi, baho indeksi va hokazo. Belgi ostiga qo'yiladigan harfiy yoki son ko'rsatkichi $a_{11}^2, C_{01}^3, K_{21}^3, \dots$

Informatika – Axborot, xabar, ma'lumot va boshqa shu kabilarni jamlash, qayta ishlashning qonunlari va usullarini o'rganadi. Informatsiya so'zi lotincha «informatio» so'zidan olingan bo'lib, tushuntirish, tavsiflash degan ma'noni anglatadi. Informatika – «Informatsiya avtomatika», ya'ni «matlumotlarni avtomatik qayta ishlash» degan so'zdan olingan bo'lib, 1960- yilda Fransiyada bu atama kirib kelgan. Informatika inson faoliyatining turli jabhalaridagi axborotlarni qidirish, jamlash, saqlash, uni qayta ishlash haqidagi fandidir.

Integral sxema – Elektron tarkibi tranzistor, diod, rezistor va boshqalardan iborat bo'lgan kremniy plastinasi; matlumotlarga kompyuter ishlovini ta'minlaydi.

Integratsiya – Ayrim qismlarning, bo'laklarning yoki elementlarning bir-biriga qo'shilishi, bir butunga aylanishi, yaxshilanishi.

Integratsiyalashgan paketlar – Vazifasi umumiy Axborot dasturlar paketi (ADP) turli dasturiy komponentlarni o'zida birlashtiruvchi ADP. Ularga: matn muharriri, elektron jadval, grafik muharriri, kommunikatsion modul va hokazolar kiradi.

Intel firmasi – 1959- yilda Robert Noyas asos solgan bo'lib, bitta plastinkada tranzistorlarni o'zaro bog'lanish usulini yaratgan. Bu elektron sxema keyinchalik integral sxemalar deb yuritilgan.

Intellekt – Insonning tafakkur yuritish qobiliyati. Aql, idrok, zakovat, aqliy, ma'naviy jihaddan yetuklik darajasi.

Interfeyns – Qurilma vositalari va dasturiy ta'minot to'plamlaridan iborat bo'lib, u foydalanuvchiga hisoblash tizimining qurilma va dasturlarning o'zaro mantiqiy harakatini ta'minlovchi vositalar yig'indisi.

Internet – Jahon bo'yicha kompyuterlar tarmoqlaridan tuzilgan yaxlit tarmoq bo'lib, unda yagona «til» – andoza qoidalari majmuyi asosida axborot almashadilar. Uning nomi «Xalqaro tarmoq» degan ma'noni anglatadi. Millionlab kompyuterlarni, millionlab uyali telefonlarni o'zaro birlashtirmoqda. Internetning dastlabki varianti AQSH mudofaa vazirligining buyurtmasiga muvofiq 1960- yillarning oxirlarida Istiqbolli tadqiqotlar agentligi, ya'ni ARPANET (Advanced Research Projects Agency) nomi bilan mazkur vazirlik kompyuterlarning bog'lash va maxfiy bo'lgan

topshiriqlarni uzatish kerak bo'lgan. Internet yagona markazdan boshqarilmaydi. 1970- yilda AQSH ning Kaliforniya va Yuta shtatlarida 4 ta kompyuterni o'zaro bog'lagan.

1981- yillarga kelib 213 ta kompyuter,

1983- yilda 562 ta,

1986- yilda 5 089 ta,

1992- yilda 727 000 ta,

1995- yilda 20 000 000 dan ortiq kompyuterlar internet tarmog'iga ulangan.

2012- yilga kelib, O'zbekistonda kompyuterlar va uyali telefonlarning 9 000 000 dan ortig'i internetga ulandi. Internet tarmog'iga ulangan kompyuter va uyali telefonlar tez sur'alar bilan oshib bormoqda.

Internet portali – Foydalanuvchilarga Internet orqali kerakli axborotni izlashda yordam beruvchi sayt. Ba'zan bunday saytlar navigatsiya saytlari deyiladi.

Internet promouteri – Internet marketingi bilan shug'ullanuvchi, ya'ni axborot mahsulotlari bozorini o'rganish orqali reklama tadbirlarini tashkil etuvchi, katalog resurslari loyihasi va qidiruv tizimlarida saytlarni qayd qiluvchi reklamalarni to'g'ri tarqatuvchi, xizmatlarga vaqtinchalik chegimalar beruvchi mutaxassis.

Internet protokoli – Kompyuterlar orasida axborot almashinuviga javob beradi. Internet protokol manzil – kompyuterlarga berilgan aksariyat hollarda 32 bidan tashkil topgan bo'lib, internetga ulangan kompyuterlarning manzilini aniqlaydi.

Internet provayderi – Foydalanuvchilarga Internetdan erkin foydalanish xizmatlarini ko'rsatuvchi kompaniya.

Internet server – Xohlagan kerakli Internet xizmatlar faoliyatini ta'minlovchi texnikaviy va dasturiy vositalar: http (suvi), E mail (elektron pochasi), anjumanlar, ftp va h.k. Saytni Internetda joylashtirish uchun kamida http xizmatini qo'llab-quvvatlovchi Internet serveri zarur.

Interneta axborot qidirish tizimlari – Interneta axborot qidirish tizimlariga quyidagilarni misol qilsa bo'ladi: YAHOO, LYCOS, EXCITE, GOOGLE, RAMBLER, YANDEX, APORT va hokazolar.

Interneta manzil – Fayl yoki boshqa resursning Interneta joylashishini aniqlovchi noyob manzil. Interneta manzil odatda to'rtta elementdan iborat: resursdan erkin foydalanish bayonnomasi, masalan, http://; odatda resursni qo'llab-quvvatlovchi tashkilot nomi bilan bir xil bo'lgan server nomi; resursni qo'llab-quvvatlovchi tashkilot turini belgilovchi qo'shimcha. Interneta manzil, shuningdek, URL (Uniform Resource Locator) manzili deb ham ataladi.

Interpretatorlar – Algoritmik tilning har bir qadamini mashina kodiga aylantiradi va tekshiradi; kompilyatorlar algoritmik tilidagi yozilgan dasturni avval mashina tiliga o'tkazadi, keyin alohida bajaradi.

Interpretatsiya – Lotincha so'z bo'lib, «interpretatio», «talqin qilish», «biror narsaning ma'nosini ochish», «biror narsani tushuntirish» ma'nolarini bildiradi.

Intranet – Internet tarmog'i mahsulotlari va texnologiyalardan foydalanuvchi va korporativ axborot resurslariga o'z foydalanuvchilarining kirishini ta'minlovchi idora, tashkilot va boshqalarning hisoblash tarmog'i.

Inversiya – Lotincha «inversio» so'zidan olingan bo'lib, «o'rin almashtirish», «o'zgartirish» demakdir.

Masalan: biror gapdagi soʻzlarni almashtirish. Mas.: Men oʻqishga keldim. Oʻqishga keldim men. Men keldim oʻqishga. Keldim men oʻqishga. Oʻqishga men keldim. Keldim oʻqishga men. Demak, bu yerda uchta soʻzdan iborat gapni 6 xil koʻrinishda yozish mumkin.

IP (Internet Protocol) Internet – TCP/IP bayon-nomalari yigʻmasidan iborat tarmoq pogʻonasining bayonnomasi. IP bayonnomada tarmoqdagi har bir kompyuterga toʻrt xonalik IP-manzil (4 bayt) mos qoʻyiladi.

IRC xizmati (Internet Relay Chat) – Bu xizmat real vaqt mobaynida bir nechta kishilarni oʻzaro toʻgʻridan toʻgʻri mulohaz qilish imkoniyati bilan taʼminlaydi. Aytirm hollarda IRC xizmatini chatkonferensiya yoki oddiy chat deb ham ataladi.

ISBN (INTERNATIONAL STANDART BOOK NUMBER) – Kitoblarning xalqaro standart raqami.

ISSN (INTERNATIONAL STANDART SERIAL NUMBER) – Davriy nashrlarning xalqaro standart raqami.

Iyerarxiya – Iyerarxiya tizimida elementlarni joylash-tirishda dasturlashgan tartib mavjud. Har bir guruhda biror element asosiy, qolganlari unga nisbatan ikkinchi darajali xususiyatga ega boʻladi. Iyerarxiya grekcha soʻz boʻlib, «boʻysunish» demakdir.

Iyerarxiya modeli – Iyerarxiya modelida maʼlumotlar daraxtsimon koʻrinishda saqlanadi. Daraxt tugunlari faqat bir necha shoxcha (yoʻnalish)ga ega. Har bir shox oʻz navbatida yana boshqa shoxchaga ajralishi mumkin.

Ichki chastota – Protssessor ishlayotgan taktili chastota.
Ish stoli – monitor ekranini barcha kengligini doimo toʻliq egallaydigan maxsus tizimli papka boʻlib, unda

operation tizimining boshqa oynalari va obyektlari aks etiriladi.

J

Jarayon ichidagi server – Bajariyotgan ilova xotira-ning qaysi blokida boʻlsa, u ham shu blokda bajari-ladi.

Java dasturlash tili – Obyektga yoʻnaltirilgan meʼmoriy tuzilmali dasturlash tili. Java tili 1992-yilda paydo boʻlgan va SUN Microsystems korporatsiyasi tomonidan taklif qilingan. Tarmoqda foydalanilayotgan maslakdan mustaqil ravishda amaliy dasturlarni yaratish imkonini beradigan vosita. Boshqa dasturlash tillariga oʻxshash, yaʼni uning ham oʻz obyektlari mavjud. Java dasturi, ayniqsa, izlash imkoniyatini kuchaytiruvchi axborot serverlar yaratishda keng qoʻllaniladi.

Jiddiy xato – Translator xatoni toʻgʻri olmaydigan va dasturni keyingi ishlovga va bajarishga ruxsat bermasligini, xato darajasi jiddiyligini bildiradi.

K

Kaliti nomlash – Maʼlumotlarning tezroq va osonroq olinishi uchun ularga kaliti soʻzlardan tuzilgan nom berish jarayoni. Maʼlumotlar bazalarida kaliti nomlash maʼlumot-larni tezda izlab topish, saralash, guruhlarga ajratish va olish uchun muhim element hisoblanadi.

CAN (Campus-Area Network) – Kampus tarmoq, bir-biri bilan telefon yoki modemlar orqali ulanish, ammo

bir-biridan bir muncha uzoqda joylashgan kompyuter lokal tarmoq.

Katalog – Fayl nomlari, uning hajmi, tashkil etilgan sanasi va boshqa ma'lumotlarni saqlaydi.

Kataloglashirish – Ma'lumotlarni katalogga kiritish; hisoblash texnikasida fayl haqidagi yoki kutubxona haqidagi axborotni kiritish. Kutubxona katalogini yaratish jarayoni.

Kattalik – Biror-bir obyektini ifodalovchi va uning muayyan bir nusxasi uchun berilgan sonli yoki ma'rifi qiymatini belgilovchi ko'rsatkich.

Kesh-xotira – Hozirgi vaqtda zamonaviy kompyuterlarning ishini tezlashtirish maqsadida tezkor xotira va protessor orasida bufer vazifasini bajaruvchi tez ishlaydigan kesh xotira o'rnatiladi.

Keshlash – Kesh – kompyutersiz Internetdan olgan barcha hujjatlarni yozib qo'yadigan jild. Agar hujjatni takroran so'rasangiz, sizga keshning ichidagini ko'rsatishadi. Proksi-server ham Internetdan olingan hujjatlarni maxsus jildga yozib qo'yadi. Agar foydalanuvchisi shu hujjatga murojaat qilsa, proksi-server uni o'zining keshidan yetkazib beradi. Siz buni sezmay-siz ham. Bu holda, siz uzoqdagi WWW-serverga shu hujjat uchun yana murojaat qilganingizga nisbatan tezlik bir daraja yuqoriroq bo'ladi.

Kilo – Qo'shma so'zlarning tarkibiy qismi bo'lib, ming, ming marta degan ma'noni bildiradi, mas.: kilogramm, kilovatt, kilometr, kilobayt va hokazo.

Kilobayt – 2¹⁰ bayt yoki 1024 baytga teng.

Klaviatura – Klaviatura va «sichqoncha» yordamida operatsion sistema va uning boshqaruvchi ostida ishlaydigan dasturlarga buyruqlar, shuningdek, bu dasturlarga kerak bo'lgan ma'lumotlar kiritiladi.

Kod – 1. Shartli belgi, odatda raqamli. 2. Muayyan ma'no berilgan ramzlar majmuyi. Kod, inson, qurilmalar va dasturiy ta'minot idrok qila oladigan axborotning ramzlar to'plami bilan tavsiflash usulini belgilaydi.

Kodlash – Son va belgi orasidagi bog'lanishni belgilash.

KO18 – Keng tarqalgan, kirill ramzlarini o'z ichiga olgan kod jadvallaridan biri (kod jadvali sonlar kompyuteri o'na tili bilan inson alifbosi ramzlari orasidagi mutanosiblikni o'rnatadi).

Kommunikatsiya – Ikki sistemali dasturni, buyruqni, dastur va buyruqni yoki buyruq va dasturni birlashtirish bir dastur yoki buyruqqa kiritish imkoniyatini beradigan funktsiya.

Kompakt disklar (Compact Disk-CD) – Kompakt disklar uch turga bo'linadi. Birinchisi faqat o'qish uchun. Ularni ishlab chiqarish jarayonida yoziladi va undagi axborot faqat o'qish uchun mo'ljallangan bo'ladi. Ya'ni uning ustiga yangi ma'lumotlar yozib bo'lmaydi. Ikkinchi turdagi kompakt disklar CD-R deb nomlanib ularga bir marotaba axborot yozish mumkin. Uchinchi turdagi kompakt disklar mavjud ma'lumot ustidan qayta yozish mumkin. Bunday kompakt disklar CD-RV deb yuritiladi. Turidan qat'i nazar kompakt diskning axborot sig'imi 640–700 megabaytmi tashkil etadi.

Komponent – Tarkibiy qism. Lotincha «compotens» so'zidan olingan bo'lib, «tuzuvchi», «tashkil etuvchi», «hosil qiluvchi» so'zlarini bildiradi.

Kompyuter – Hisoblash va ma'lumot masalalariga avtomatik ishlov berishga mo'ljallangan, elektron texnik vositalar majmuasi.

Kompyuter axboroti – Agar axborot kompyuter texnikasi yordamida uzatish, islov va saqlash imkoniyatiga ega bo'lsa, u kompyuter axboroti deyiladi.

Kompyuter kodi – Kompyuter kodi ikkita kod bo'lib, bunda «nol» va «bir»larning ma'lum bir uyg'unligi bajariluvchi komandalarni hosil qiladi.

Kompyuter lingvistikasi – Turli sohalar bo'yicha samaradorlikni oshirishning yagona yo'li, ishlarni kompyuter vositasida amalga oshirishdir. Kompyuter tibbiyoti, kompyuter iqtisodiyoti, kompyuter huquqshunosligi qatorida tishunoslikda ham kompyuter lingvistikasi yo'nalishining yuzaga kelishi tabiiy holdir.

Kompyuter lingvistikasining vazifalari – Lingvistik masalalarni kompyuterda hal qilishga o'rgatish. Zamonaviy kompyuter texnologiyalari dastur tillaridan umumli, maqsadli foydalanish.

Kompyuter savodxonligi – Kompyuterda professional masalalarni yechish jarayonida qo'llash uchun bo'lgan bilim va mahoratlar majmuasi.

Kompyuter tezligi – Vaqt birligida, kompyuter tomonidan elementlar amallarini bajarish soni.

Kompyuter tili – Dasturlarni, ularning texnik vositalari orqali berilganlarga islov berishga imkon beruvchi formada tasvirlangan dasturlash tili; kompyuterining xususiy tili.

Kompyuter tarmog'i – Ma'lum sondagi (ikki va undan ortiq) kompyuterlarning ma'lumot uzatish vositalari yordamida bir-biri bilan ulanishi.

Kompyuter va telekommunikatsiya o'quv tarmoqlari – Masofaviy o'qitishni ta'minlaydi. O'qish jarayoni telekommunikatsiya orqali, ya'ni internet tarmog'i vositalari

asosida amalga oshiriladi. Bu tizim ko'pchilik odamlarga bilim darajalarini o'z uylarida oshirish imkoniyatini beradi.

Kompyuter virusi – Katta hajmga ega bo'lmagan, maxsus yozilgan kompyuter dasturi bo'lib, u o'z nusxasini, disklarning tizimli sohalariga, bajariladigan buyruqli fayllardagi kompyuter dasturlarga, drayverlarga, hujjatlarga va boshqa axborot tashuvchilarga o'kazish imkoniyatiga ega. Virus o'z nusxasini boshqa dasturga joylashtirish jarayoni dasturga virus «yuqishi» yoki bu dastur virus bilan zarurlangan deyiladi.

Kompyuterlar palirasi – Bu yerda standart yoki dasturchilar tomonidan yaratilgan kompyuterlar mavjud bo'lib, ulardan tez va sifatli dasturlar yaratishda foydalaniladi.

Kompyuterlashtirish – Kompyuter mahsulotlari va xizmatlari industriyasining rivojlanish jarayoni va ulardan jamiyatda keng foydalanish. Korxonalar, muassasalar va o'quv yurtlarini hisoblash texnikasi bilan ta'minlash va aholining umumta'lim darajasini kompyuterlarni qo'llash orqali yuksaltirish.

Kompyuterining dasturiy ta'minoti – Kompyuterda axborotlarga turli ko'rinishdagi ishlovlar berishni ta'minlash uchun tayyorlangan dasturlar mavjud bo'lib, ular kompyuterining dasturiy ta'minoti deyiladi.

Kompyuterining tashqi qurilmalari – Printer, skaner, modem, strimer va shu kabilardan iborat bo'lgandan qurilmalar.

Konfidensial axborot – O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga asosan va elektron hujjat aylanishi qoidalariga mos ravishda ko'rish mumkin bo'lmagan axborot.

Konsepsiya – Hodisalarni u yoki bu tushuncha bilan aniqlaydigan nuqtayi nazarlar tizimi.

Konstanta – O'zgarmas miqdor. Konstanta lotincha «constans» – «doimiy», «o'zgarmas» degan ma'nolarni anglatadi.

Kontekst menyu – Bu menyu «sichqoncha» ko'rsatkichini aniq bir obyektga keltirib, o'ng klavishini bosish orqali chiqariladi. Kontekst menyudagi buyruqlar majmuyi tanlangan obyektga ko'ra farqlanadi. Kontekst menyu – bu oynaning ixtiyoriy joyida «sichqoncha» o'ng klavishini bosilganda chiquvchi menyudir.

Kontent menedjer (kontent operator) – Axborot to'planishi kuzatuvchi, kiritilayotgan axborotlarni tahrirlayuvchi, savol va javoblar kolonkasini yurituvchi, mijozlarga maslahat beruvchi mutaxassis. Bunday mutaxassisdan ma'lumotlar bazasi tarkibi va mazmunini, ba'zi bir dasturlash tillarini bilish talab etiladi.

Korzina papkasi – Maxsus tizimli papka bo'lib, uning oynasida kompyuter bilan ishlash jarayonida yo'qotilgan (o'chirilgan) barcha obyektlar (papkalar, fayllar va yoritqilar) saqlanadi. Papkani sig'imi qattiq diskning o'ichamiga bog'liq bo'ladi.

Korrektor – Barcha matnli materiallarni, shuningdek, grafik obyektlarni, tugmalarni, banerni tekshiruvchi mutaxassis. Bunday mutaxassisdan bozor xususiyatini, internetdagi axborot-qidiruv tizimini, internetda reklama almashish qoidalarni bilish talab etiladi.

Kriptografik hikoya – Kriptografik algoritmlar yordamida axborotni sanksiyasiz o'zgartirish va unga begonalarning kirishidan himoyalash...

Kriptografik tizim – Shifrlash, shifri ochish algoritmlar hamda maxsus kalitlar to'plamini tushuniladi.

Kriptografiya – «Sirli yozuv» degan ma'noni anglatib, axborotlarning o'zaro ta'siri jarayonida ularni himoyalash usullarini o'rganuvchi fanidir.

Kriptotahil – Bu maxsus kalitlarni bilmagan holda shifrlarni «sindirish» (ochish) hamda ma'lumotlarni o'qish imkoniyatlarini o'rganish bilan shug'ullanadi.

Kursor – Ekraniga belgi tushadigan joy maxsus usul bilan belgilanadi. Buning uchun maxsus belgi bor bo'lib, u kursor deb ataladi.

Kutubxona assotsiatsiyasi – Kutubxonachilik sohasi bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar (tashkilotlar)ning muayyan maqsadni amalga oshirish uchun uyushishi.

Ko'p dasturli rejim (multidastur) – OS bir vaqtning o'zida bir-biriga bog'liq bo'lmagan bir necha dasturlarga xizmat qiladi. Bunda resurslar dasturlar o'rtasida o'zaro taqsimlanadi. Axborot resurslari deganda, tashkilot (idora) uchun qadr-qiyomatga ega va moddiy resurs sifatida qatnashadigan ma'lumotlar yig'indisi tushuniladi. Ularga ma'lumotlar fayli, hujjatlar, matnlar, grafiklar, bilim, audio, videoaxborotlar va hokazolar kiradi.

Ko'chirib o'tkazish – Maxsus ma'lumotlarni o'qib olish jarayoni. Kutubxona tizimlaridagi turli manbalardan mashina o'qiy oladigan katalog yozuvlarini katalogga ko'chirib o'tkazish va uni doimo yangilash.

L

LAN (Local-Area Network) – Mahalliy (lokal) tarmoq, ya'ni ma'lum bir ofis, bino ichidagi aloqa.

Lingvistika – Til to'g'risidagi fan. Hisoblash texnikasida ishlatiladigan sun'iy tillar (kompyuter tillari) lingvistikasi EHM yordamida turli amaliy masalalarni yechishda yangi tillarni o'rganish, ishlab chiqish va qo'llash masalalarini ko'radi.

Lingvistik ta'minot – Inson va tizim orasidagi mulogotni ishlab chiqish hamda ta'minlash uchun axborotlarga ishlov berishda va foydalanishning turli bosqichlarida ishlatiladigan til vositalari yig'indisi.

Linux – Bu shaxsiy kompyuterlar va ishchi stansiyalar uchun Unix-turkumi operatsion sistema. Linux operatsion sistema Unix, Dos, Ms Windows sistemalariga mos keladi. Linux operatsion sistema Xelsinki universitetida Linus Torvalds, tadqiqot markazlarining xodimlari tomonidan ishlab chiqilgan. Uning imkoniyatlari quyidagilar: tez harakatlanish darajasiga ega; mustahkam, barqaror, uzilishsiz ishlaydi; viruslar ta'siridan xoli va hokazo.

Like operatori – Like operatori satrni o'zgaruvchilarni solishtirishni ta'minlaydi. EHM satrni o'zgaruvchilarni shablon bo'yicha solishtiradi.

Logika – Mantiq ilmi – tafakkur qonunlari va fikrlash formalari haqidagi fan (qarang: mantiq).

Login – 1. Biror saytga kirib, registratsiya qilish jarayoni. 2. Foydalanuvchining tarmoqqa kirish jarayonini tekshirish tizimi. 3. Biror elektron pochta xizmatiga registratsiya qilingan foydalanuvchining nomi.

Lokal hisoblash tarmog'i – Uzatish kanallari (optik tolali kabel va boshqalar) orqali o'zaro bog'langan kompyuterlar majmuyi, kompyuter orqali boshqariladigan qurilmalar, bir yoki bir necha obyekt (bino) doirasidagi axborot resurslardan birgalikda foydalanish.

Lokal tarmoq (mahalliy tarmoq) – Bu tushuncha ma'nyidir. Bunday deyilishiga sabab, kompyuterlar bir xona, bino, tashkilot yoki bir qancha binolardan iborat bo'lgan tashkilot doirasida kompyuter tarmoqlarini tashkil qilish mumkinligidir.

Loyiha ma'muri – Internet loyahasini, Web-sahifaning barcha faol elementlarini boshqaruvchi, Web-sahifani to'ldirib borish va nazorat qilish, mualliflik huquqini himoya qilish vazifalarini bajaruvchi mutaxassis.

LYCOS – Eski internetda axborot qidiruv tizimlaridan bo'lib, elektron manzili : //www. Lycos.com/.

M

Makros – 1. Boshqa buyruqlar ketma-ketligini bajarishga olib keluvchi buyruq. 2. O'miga makroko'rsatma (masalan, assembler tilining bir necha mashina buyruqlariga aylantiriluvchi buyruq'i) orqali berilgan matn yoziluvchi dastur ifodasi.

MAN (Metropolitan – Area Network) – Katta tezlik bilan aloqa uzatish, katta radiusga (bir necha o'n kilometr) axborot uzatish imkoniyatiga ega kengaytirilgan tarmoq.

Mantiq – 1. Kelib chiqishiga ko'ra, arabcha bo'lgan «mantiq» (grekcha logika – logos) atamasi «fikir», «so'z», «taq», «qonuniyat» kabi ma'nolarga ega. Uning ko'p ma'noli turli xil narsalarni ifoda qilishda o'z aksini topadi. Xususan, mantiq so'zi, birinchiidan, obyektiv olam qonuniyatlarini (mas., «obyektiv mantiq», «narsalar mantiq'i») kabi iboralarda), ikkinchiidan, tafakkurning mavjud bo'lish shakllari va taraqqiyotini, fikrlar o'tirasidagi aloqadorlikni

xarakterlaydigan qonun-qoidalar yig'indisi va uchinchidan, tafakkur shakllari va qonunlarini o'rganuvchi fanni ifoda etishda ishlatiladi. 2. Formal mantiq, dialektik mantiq va matematik mantiq kabi yo'nalishlari mavjud. Mantiq ilmining alohida fan sifatida shakllanishi Aristotelning (miloddan avvalgi III – IV asrlarda yashagan) bilan bog'liq.

Mantiqiy disk – Amaliy (operatsion) tizim tomonidan aniqlanadigan disk moslamasi. Mantiqiy disk fizik diskdan farq qilishi mumkin. Masalan, bitta disk bir necha mantiqiy disklarga ajratilgan bo'lishi mumkin (Windowsda C., D., E.).

Mantiqiy lingvistik model – Bilimlar modeli bo'lib, bunda tasvirlash predmet soha obyektlari asosida bilimlar, ular orasidagi munosabalar va lingvistik vositalarga asoslanadi.

Markaziy professor (CPU-central processing unit) – Kompyuterning asosiy hisoblashlar va boshqaruv elementi hisoblanadigan tranzistorli mikro sxema. U kompyuterning asosiy «miya»si deb ham yuritiladi.

Masofaviy ta'lim – Masofaviy o'qitishning yangi zamonaviy texnologiyalaridan foydalangan holda keng ommaga masofadan turib bilim olish imkoniyatlarini yaratish.

Massiv – Bu bir xil tipli, chekli qiymatlarning tartiblangan to'plami.

Matematik mantiqda mulohaza – Faqat rost yoki yolg'on qiymat qabul qiluvchi fikr.

Matematik paketlar – Hozirgi zamon kompyuterlarida qo'llanilayotgan Mathematica, Maple, Matlab, Derive, Mathcad kabi tizimlar va qiymatlarini statistik tahlil qilishga mo'ljallangan SSPS, Statistica, Statgraphics, Stadia va shunga o'xshash tizimlar oilalari nazarda tutiladi.

bu paketlar yordamida turli sonli va analitik (simvoli) matematik hisoblarni, oddiy arifmetik hisoblashlardan tortib, to'xtusiy hosilali differensial tenglamalarni yechish, optimallashtirish masalalarini hal etish, statistik gipotezalarni tekshirish hamda matematik modellarni yaratishga qadar turli zarur texnik hisoblashlarni amalga oshirish mumkin.

Matematik ta'minot – Tizimdan foydalanish amaliy muasalarni yechishda qo'llaniladigan matematik model, usullar va ma'lumotlar bazasini boshqarish algoritmlari to'plami.

Mashina tili – Kompyuter tomonidan to'g'ridan to'g'ri kompiyuterasiz bajarilishi mumkin bo'lgan jami mashina ko'rsatmalaridan iborat kompyuter tili. Ko'rsatmalar va ma'lumotlar binar shaklda taqdim etiladi. Mashina tili kompyuter apparat ta'minotining ona tilisi bo'lib, kompyuterning barcha vazifalarini nazorat qiluvchi mikroprosessor tushunadigan yagona tildir. Kompyuterda ishlov beriladigan barcha dastur va ma'lumotlar ma'lumot bosqichda albatta mashina tiliga o'giriladi.

Mashina o'qiy oladigan katalog (MARK) – Bibliografik ma'lumotlarni almashtirishning xalqaro formati, bibliografik ma'lumotlarni markirovka qilish sxemasi. Uning bir qator milliy variantlari mavjud. Mas., USMARC (AQSH Kongress kutubxonasida ishlatiladi), UKMARC (Buyuk Britaniya kutubxonasida ishlatiladi) va boshqalar. UNIMARC boshqa MARS formatlarga mos holda ishlay oladigan universal format hisoblanadi.

Ma'lumotlar – Belgili shaklda ifodalangan obyekt yoki obyektlarning muomalasi haqidagi axborotlar ma'lumotni tashkil qiladi.

Ma'lumotlar banki (MBn) – Ma'lumotlarni markazlashtirilgan tartibda yig'ish va kollektiv tarzda undan foydalanishni ta'minlovchi dasturlar, til hamda tashkiliy vositalar tizimi MBning komponentlariga MB va MBBTlari kiradi. MBn istagan ma'lumotlar to'plamiga tegishli bo'lishi mumkin, jumladan, mustaqil fayllar, MB va axborot qidiruv tizimlari.

Ma'lumotlar bazasining ma'muri – Ma'lumotlar bazasi haqida to'liq axborotga ega bo'lgan va uni yuritish, foydalanish, rivojlantirishga javobgar lavozimli shaxs (shaxslar guruh).

Ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi (MBBT) – Ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi hozirgi vaqtda eng zamonaviy MBBTga kiradi va u MBni yaratish, MBda ma'lumotlarni saqlash, izlash va ishlashni avtomatlashtirishga mo'ljallangan.

Microsoft office tarkibiga kiruvchi MS Access MBBT yaratilishi bilan foydalanuvchilar dasturlash ishlari bilan shug'ullanmasdan yetarli darajadagi ma'lumotlar bazasini yaratish va ular bilan ishlash imkoniyatiga ega.

Ma'lumotlar ombori – Bu o'zaro bog'langan va tartiblangan ma'lumotlar majmuasi bo'lib, u ko'rilayotgan obyektlarning xususiyatini, holatini va obyektlar o'rtasidagi munosabatni ma'lum sohada tavsiflaydi. MS Access dasturi yordamida oddiy foydalanuvchi dastur tuzmasdan katta va murakkab bo'lgan ma'lumotlar omborini yaratish va qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladi. MS Access dasturining bir necha versiyalari mavjud bo'lib, ularning ko'p xususiyatlari o'xshash, ammo bir-biridan imkoniyat darajasi bilan farqlanadi.

Ma'lumotlar tashuvchisi – 1. Moddiy obyekt yoki moslama. U ma'lumotlarni yozish, saqlash va o'qish imkonini beruvchi ma'lum fizik xususiyatlarga ega. Hisoblash texnikasida ma'lumotlar tashuvchisi sifatida yurimo'tkazgich kristallar, magnit va lazer disklari, magnit tasmalar, agnit kartalar, perfokarta va perfotasmalar.
2. Axborotni yozish uchun va doimiy xotira qurilmasi sifatida ishlatiladigan jism yoki muhit.
3. Ma'lumotlar yozilishi yoki o'qilishi mumkin bo'lgan moddiy obyekt hamda (bosh uchun) qog'oz ishlatiladi. Ma'lumotlar tashuvchisiga ma'lumotlarni yozish va ularni o'qish moslamalari bilan birga ma'lumotlar tashuvchisi xotira qurilmasini tashkil qiladi, ma'lumotlar butunligi.

Ma'lumotlar xavfsizligi – Ma'lumot va dasturlarni buzish, o'zgartirish yoki o'chirib tashlash maqsadida funksiyasiz kirishdan himoya qilish. Ma'lumotlar xavfsizligi apparatlar, dasturiy, kriptografik usullar, himoya vositalari va kompleks tashkiliy tadbirlar o'tkazish orqali amalga oshiriladi.

Ma'lumotlarni uzatish – Aiffo-raqamli belgilardan iborat axborotlarni elektr impulslar ko'rinishda uzatish.

Megabayt – 2¹⁰ kilobayt yoki 1024 kilobaytga teng.

Menyu – bu biror operatsiyani bajarish imkonini beruvchi buyruqlar majmuvi.

Metafayl – Tarkibida boshqa fayllar bo'lgan yoki boshqa fayllarni belgilovchi fayl.

Mikroprotessor (MIP) – Shaxsiy kompyuterining asosiy bloki bo'lib, kompyuterining boshqa bloklari ishini boshqaradi hamda ma'lumotlar ushda arifmetik va mantiqiy amallar bajarilishini ta'minlaydi.

Mikroprotsessorning interfeys tizimi – Kompyuter-ning boshqa qurilmalari bilan bog‘lanish va ma‘lumotlar almashinishini ta‘minlab beradi.

Microsoft firmasi – 1984-yilda Windows operatsion tizimining birinchi namunasi yaratildi. Windows operatsion tizimining yaratilishini amerikaliklar 20-asrning eng buyuk kashfiyotlari sifatida e‘tirof etdilar.

Mintaqaviy tarmoq – Bir-biridan ancha uzoq masofada joylashgan kompyuterlarni va lokal kompyuter tarmoqlarini o‘zaro bog‘laydi. Shaharlararo, xatto, davlatlararo abonentlarni o‘z ichiga olishi mumkin. Odatda mintaqaviy hisoblash tarmog‘i abonentlari o‘rtasidagi masofa o‘n yuzlab kilometrni tashkil etishi mumkin.

Model – Lotincha «modulus» so‘zidan olingan bo‘lib, «o‘lchov», «me‘yor» degan ma‘nolarni bildiradi. Model deganda biror obyekt yoki obyektlar tizimining obrazi yoki namunasi tushuniladi. Globus yerning modeli, o‘yinchoq samolyot, vertolyotlar haqiqiy samolyot, vertolyotlarning modeli deb qaralishi mumkin. Sizing rasmingiz – bu sizning modelingiz. Binolarning maketlari ham model. Model – keng qamrovli tushuncha.

Modem – Kompyuterlar o‘zaro telefon tarmog‘i orqali axborot almashinishini ta‘minlovchi qurilma. Modem – «Modulyator» va «demodulyator» so‘zlarining qisqartir-masidan olingan bo‘lib, kompyuterdan olingan raqamli signallarni telefon tarmog‘idan o‘tuvchi analogli signallarga aylantirish (modulatsiya) va, aksincha, telefon tarmog‘idan kelgan analogli signallarni raqamli signallarga o‘tkazib (demodulatsiya) kompyuterga kiritish uchun xizmat qiladi. Xuddi shu kabi faks modemlar ham mavjud.

Modul – Dasturning ta‘minot birligi – dastur moduli. Kompyuterning bir shaklga keltirilgan uzeli.

Modullash – Tizimning modullarga ajralishi. Bir-biriga bog‘liq bo‘lmagan modullar qancha ko‘p bo‘lsa, modullash yuqori darajada bo‘ladi.

Monitor (display) – Kompyuter monitori ekranga muvofiq va grafik axborotni chiqarish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, bu tasvirlarni kompyuterning videokontrolleri shakllantirib beradi. Hozirgi vaqtda suyuq kristalli yuppqa (LCD) rangli monitorlardan foydalanilmoqda.

MS ACCESS – Ma‘lumotlar bazasini boshqarish tizimi hozirgi vaqtda eng zamonaviy ma‘lumotlar bazasini boshqarish tizimi (MBBT)ga kiradi va ma‘lumotlar bazasi (MDB)ni yaratish, ma‘lumotlarni saqlash, izlash va ishlashni avtomatlashtirishga mo‘ljallangan. MS ACCESS dasturining bir qancha versiyalari mavjud. MS ACCESS dasturining yana bir qo‘shimcha ustunligi uning MS office tarkibiga kiruvchi boshqa Word, Excel va hokazo dasturlar bilan integrallashganligidir.

MS DOS – Bir vazifali operatsion tizim. U bir foydalanuvchining aniq bir paytda ma‘lum bir vazifasini bajarish uchun mo‘ljallangan bo‘ladi.

MS Excel – Excel Microsoft office paketi tarkibidagi dastur bo‘lib, u Windows operatsion qobiq dasturi boshqaruvida ishlovchi hamda ma‘lumotli elektron jadvallarni tayyorlash va qayta ishlashga mo‘ljallangan.

MS Power Point dasturi – Ushbu dastur Office paketi tarkibidagi dastur bo‘lib, u bevosita Windows operatsion tizimi boshqaruvida ishlaydi. Power Point yordamida turli mazmundagi ma‘ruzalar, hisobotlar, dasturlar va shu kabi hujjatlarni slaydlar tarzida mazmunli, tez va yuqori sifarda tayyorlash mumkin. Dasturning imkoniyatlari keng bo‘lib, rasm, diagramma, grafiklarni

bog'lash, bir joydan ikkinchi joyga ko'chirish, matnlar yoniga tasvirlar tushirish, ekranga chiqarish yordamida turli xil animatsiyalardan foydalangan holda namoyish o'tkazish mumkin.

MS Word – Makrosoft firmasi tomonidan yaratilgan matnli hujjatlarni tuzish, tahrir qilish va chop etish uchun xizmat qiluvchi makrosoft ofis dasturlari guruhiga kiruvchi matn muharriri.

Mulohazalar – Faqat chin yoki yolg'on qiymat qabul qiladigan darak gaplar. Demak, har bir mulohaza chin yoki yolg'on qiymatga ega. «Chin» qiymat «1», «yolg'on» qiymat esa «0» bilan belgilanadi. Kompyuterlar mantiqiy fikrlashga asoslangan bo'lib, ikkilik sanog sistemasida ishlaydi.

Multimedia – Tasviri ma'lumotlar bilan ishlashga qodir bo'lgan vosita hisoblanadi. «Multimedia» so'zi lotincha «media» so'zidan olingan bo'lib, «ma'lumot tashuvchi vosita» degan ma'noni anglatadi. Multimedia kompyuterlari so'z, musiqa va boshqa ovozi ma'lumotlar, video ma'lumotlarni qabul qiladi va ular ustida ishlaydi.

N

Nanotexnologiya – Nano yunoncha «nanos» – «miti» demakdir. Nano – milliarddan bir ulushni bildiradi. Mas., 1 metr = 10^9 nanometr = 1 000 000 000 nanometr yoki 10^{-9} metr = 1 nanometr.

Bir necha atomlar, molekular sistemidan iborat tuzilmalardagi xossalarni, ularda sodir bo'ladigan jarayonlarni va ularni amalga tabiiq qilish usullarini o'rganadigan yo'nalish nanotexnologiya deyiladi.

1960–1970-yillarda radio, televizor, boshqalar ham inson elektr on lampalarda ishlar edi. Yarimo'tkazgichlar ilmiy sohnsida erishilgan yutuqlar natijasida 1970–1980-yillardan boshlab elektron lampalar o'rmini yarimo'tkazgichli diod, tranzistor kabilar egalladi (mikrosxemalar yaratildi). Elektronika sohasi rivojlanib bormoqda. Bu sohaning ohyekti shu darajada kichiklashdiki, uning o'lehami atom va molekularlarning o'lehami darajasiga borgan sari yanqilashmoqda. Bularning barchasi «nanotexnologiya» deb ataluvchi sohaning vujudga kelishiga va shiddat bilan rivojlanishiga olib keldi.

XXI asrda nanotexnologiya sohasi bilan birgalikda, boshqa nanofanlar – nanofizika, nanokimy o, nanobiologiya, nanotibbiyot kabi sohalarining ham taraqqiyoti kutilmoqda. Ularning barchasi, o'z navbatida, insoniyatning farovon hayot kechirishi uchun xizmat qiladi.

Norezident viruslar – Tezkor xotiraga o'z kodini joylashtirmagan holda faqat zararlangan dastur ishlangan-dagilina faoliyat ko'rsatadi. Bular dan tashqari, boshqa viruslar ham mavjuddir: kompanon, parazit, talaba, polimorf, mutant, troyan, chuvalchangsimon va hokazo viruslar.

Norton kommander (NC) – Tizimli dasturlarning keng shafi qobiq dasturlar bo'lib, u foydalanuvchini kompyuter bilan qulay va yaqqol mulogotini ta'minlaydi. Norton Kommander (Norton Commander) qobiq dasturlar jumlasidandir.

Noutbuk kompyuterlar – Noutbuk kompyuterlar ischam, ammo bajaradigan amallar soni, xotira hajmi shaxsiy kompyuterlar darajasiga ko'tarilib bormoqda. Ularning qulaylik tomonlaridan biri ham elektr energiyasidan

va ichiga o'rnatilgan batareyalar yordamida ishlash mumkinligidir. Hozirda noutbuk kompyuterlaridan ham ixcham cho'ntak kompyuterlari ishlab chiqilgan. Ular ham, tabiiyki, operatsion sistema boshqaruvida ishlaydi va turli soha masalalarini yechishga qodir.

O

Obyekt – Bu operatsion tizimning istalgan elementi bo'lishi mumkin: disk, papka, fayl va yorliq kabilar.

Obyekti kod – Dastlabki matni mashina kodiga o'g'irishnatijasida hosil bo'lgan dastur.

Ona platasi – Shaxsiy kompyuterlar tizim blokining asosiy platasi. Shaxsiy kompyuterlarning ona platasida markaziy professor, tezkor xotira, tizim va mahalliy shinalar hamda alohida platalar shaklida bo'lgan displey adapteri, qattiq va egiluvchan diskning nazoratchilari va portlar solinadigan uyalar joylashgan.

Onlayn (On-line) – Sizing kompyuteringiz xostizim bilan ulangan marom, hamda kompyuteringiz FTP-server, WWW-server, BBS va boshqa umumiy foydalanish mumkin bo'lgan tizim bilan ulanganda bevosita xizmatni taqdim qilish. O'zgaracha qilib aytganda, foydalanuvchi bilan bevosita o'zaro aloqada ishlash maromi (foydalanuvchi talabnomalarini paket ishlash tizimlaridan farqli).

Onlayn texnologiyasi – Haqiqiy vaqt oraliq'idagi doimiy ulanish. Haqiqiy vaqt oraliq'ida axborot almashishni ta'minlovchi tarmoq, axborot fazosidagi ma'lumotlar kommunikatsiyasi vositalari; chatlar, audio va videokonferensiyalar va boshqalar.

Ommaviy axborot vositalari – Axborot berish va uni yoyish, tashviqot qilish maqsadlarida ishlatiladigan turli vositalar majmua.

OPAC (ONLINE PUBLIC ACCESS CATALOG) – Jamoatchilik tomonidan foydalaniladigan tezkor katalog. Elektron kutubxona katalogidagi qidiruv tizimi.

Operator – Bu berilgan dasturlash tilida kompyuterda ma'lumotlarni qayta ishlash jarayonida ma'lum bir tugallangan amalni ko'rsatish uchun mo'ljallangan ko'rsatma.

Operatsion tizim – Kompyuter qurilmalari va dasturiy resurslarini boshqarishga mo'ljallangan ta'minot.

Optimallashtirish – Biror bajarish kerak bo'lgan masala (yoki jarayonni) yechishning eng samarali strategiyasini aniqlash.

Opsiya – Ishlov beriladigan dastur topshirig'i uchun ko'rsatma hamda dasturning asosiy uslubini o'zgartiruvchi, qo'shimcha vosita.

Optik aloqa liniyasi – Optik to'qima texnikasidan foydalanuvchi aloqa liniyasi.

Optik diskovod – Optik diskni siklik ravishda siljitiib turuvchi, diskni boshqarish mexanizmi.

Out Look Express dasturi – Ushbu dastur elektron pochta xizmatini amalga oshiradi. Bu dastur yordamida xat yozish, jo'natish va o'qish tartiblarini amalga oshirish mumkin.

Oyna – Bu ekrandagi to'rtburchak shaklidagi soha bo'lib, oson siljitiладigan va o'zgartiriladigan, aniq bir biror-bir dastur yoki papka bilan bog'langan va o'zida obyekt yoki matnlar bilan ishlash uchun ish sohasini mujassamlashtirgan vositadir.

Ochiq dasturiy ta'minot – Ochiq manbali dastur. Ochiq manbali dastur kodini ochib, hech qanday to'siqsiz, unga o'zgartirishlar kiritish mumkin bo'ladi. Ochiq litsenziyali dasturiy ta'minot, albatta, bepul bo'lishi shart emas.

P

Page Maker dasturi – Page Maker Aldus Corporation firmasi tomonidan yaratilgan keng imkoniyatli va qulay dastur. Unda ishlash uchun MS Windows operatsion sistemasining to'liq versiyasi bo'lishi zarur. Page Maker dasturi yordamida qo'lyozmani kiritish, tahrir qilish, o'qib chiqish, maxsus simvollar bilan ishlash va har xil chizmalar chizish, rasmlarni joylashtirish kabi amallarni bajarish mumkin. Gazeta, jurnal va kitoblarni nashrga tayyorlashda Page Maker dasturlaridan ham foydalaniladi.

PAINT – Peint grafik muharriri kompyuterdan foydalannuvchi ish jarayonida turi xil shakl yoki grafiklar chizish, reklama, e'lonlar matni hujjatlarni bezash kabi ishlar ko'lamini bajarish PAINT dasturi yordamida amalga oshirish qulay.

Papka – mantiqiy sig'im bo'lib, unda ixtiyoriy obyektlarni, fayllarni, boshqa papkalarni, yorliqlarni va shunga o'xshashlarni saqlash mumkin.

Parol (PASSWORD) – Tarmoqdan foydalanuvchilar imtiyozini aniqlashda ishlatiladigan himoya vositasi. Foydalanuvchi o'z nomini ko'rsatgach, tizimga kirish oldidan so'raladi.

Paskal dasturlash tili – Paskal dasturlash tili shveytsariyalik professor Virt Niklaus tomonidan 1971-yilda

yaratilgan bo'lib, 1981-yilda Paskal tilining xalqaro standarti qabul qilingan. 1642-yilda frantsuz olimi Blez Paskal yaratgan jamlash mashinasi birinchi hisoblash mashinasi deb qabul qilingan. Yaratilgan dasturlarning ba'zisi H. Paskal xotirasiga qo'yilgan. Ushbu til soddaligi, mantiqiyligi va samaraliligi bilan butun dunyoga tez tarqaldi. Hozirgi paytda barcha kompyuterlar ham ushbu tilda ishlash imkoniyatiga ega. Paskalda tuzilgan dasturlar matnning to'g'riligi osonlik bilan tekshirish mumkinligi, ularning ma'nosi yaqqol ko'zga tashlanishi va oddiyligi bilan alohida ajralib turadi. Shuning uchun Paskal yuqori darajadagi til hisoblanadi. Dasturlashda Paskalning «Objekt Paskal» va «Delphi» deb nomlanadigan dasturlash muhiti eng ommalashtirilgan tizimlardan biri hisoblanadi.

Perabayt – 2¹⁰ terabayt yoki 1024 terabaytga teng.

PHP tili – Ixtisoslashgan (Hypertext Preprocessor dan olingan) til. Web-sahifalar mazmunini dinamik tarzda shakllantirib skriptlarni veb-server tomonida yaratish uchun mo'ljallangan.

Piksel – Grafik tasviri ekranga chiqarishning eng kichik elementi.

Piktogramma (Elektron tugmacha) – Asboblardir (uskunalar) panelning tugmachalari.

Plotter – Kompyuterdan chiqarilayotgan ma'lumotlarni katta o'lchamdagi qog'ozda rasm yoki grafik ko'rinishda tasvirlash imkonini beruvchi qurilma.

Port – Portlar kompyuter sistema blokining orqa tomonida joylashtirilgan bo'ladi. Ular kompyuterga monitor, klaviyatura, «sichqoncha», printer, skanerlarni ulash moslamalardir. Portlar maxsus o'lchamdagi «tuyuk»chalar ko'rinishida bo'ladi.

Portal – 1. Internetda boshlang'ich ish boshlovchi, ko'p xizmatlarga ega sayt. 2. Katta hajmdagi virtual axborot massivi, u o'z ichiga kichik hajmdagi turli tematik bo'limlarni yoki kam sonli mustaqil loyihalarni oladi.

Pozitsiya – Joy, o'rin, razryad, raqam, belgining egallagan joyi, o'rni.

Pragmatik adekvatlik – Olingan axborotning asosiy boshqariladigan jarayon bilan mos kelishini belgilaydi.

Pragmatik jihat – Akrobatlarni amaliy jihatdan foydalligi, iste'molchi uchun qanchalik qimmatli ekanligi va qaror qabul qilishdagi ahamiyati nuqtayi nazardan ko'rib chiqadigan omil.

Prezentatsiya va slyadlar – Power Pointda prezentsiya va slyadlar tashkil etishning turli xil uslublari mavjud. Prezentatsiya va slyadlar ustida turli amallarni bajarish mumkin. Power Pointdagi mavjud faylni ochish, tahrirlash, xotirada saqlash, ma'lum bir qismini o'chirish, diagramma, rasm va grafikalar qo'yish va hokazo ishlarni amalga oshirish mumkin.

PRINT buyrug'i – Fayllarni chop qilish uchun qo'llaniladigan buyruq.

Printer – Chop etish qurilmasi bo'lib, kompyuterdagi axborotni qog'ozga chiqarish uchun xizmat qiladi. Printerlarning turli xillari mavjud.

Programmash tilining semantikasi – Tilning elementlari va ular orasidagi munosabatlarni aniqlaydigan qoidalar va shartlar.

Protokol – Axborot uzatish usulini boshqaruvchi qoidalar va standartlar majmuyi.

Protsent – Biror sonning protsenti – bu sonning yuzdan bir qismi. Protsent lotincha «pro cent» so'zidan «yuz hisobi-

dan» degan ma'noni bildiradi. Protsent tushunchasi xo'jalik, me'yva, statistik hisoblarda va hokazolarda o'rganilayotgan miqdor yoki hodisalarni xarakterlash va taqqoslash, baholash uchun ishlatiladi.

Protsessor razryadligi – Axborot birligini bir vaqtning ichida birgalikda qayta ishlanadigan axborotlar soni. U ichki registrlarning razryadligiga bog'liq.

Provodnik (Boshlovchi) – Kompyuterga murojaat qilishning eng kerakli ko'nikmalariga ega bo'lishda Provodnik bilan ishlash hisoblanadi. U, ayniqsa, obyekt-larni diskdan diskka ko'chirish ishlarida, papka va fayllarga murojaat qilishda foydalanuvchilarga keng imkoniyatlar yaratadi.

Provayder (Tarmoq taklifchilari) – Internetga ulanishni taqdim etuvchi tashkilot. Agar internetga kirib tashlanmoqchi bo'linsa, u holda aynan o'shalar bilan kelishishga to'g'ri keladi.

Q

Qayta yozilmaydigan kompakt disk – Matnli, grafik, tovushli va turli axborotlarni saqlashga mo'ljallangan optik disk. U ma'lumotnoma materiallari, bibliografik ma'lumotlar bazasi va taqsimlangan dasturiy ta'minotni saqlash vositasi hisoblanadi.

Qattiq disk (Winchester) – Kompyuterda ishlash jarayonida qo'llaniladigan ma'lumotlarni doimiy xotirada saqlash uchun xizmat qiladi. Qattiq diskda operatsion tizim dasturlari, matn muharrirlari, ko'p qo'llaniladigan dasturlar majmuyasi, dasturlash tillari va hokazolalar saqlanadi.

Qiyमतlar miqdori – Parametr tavsiflash elementlari qiymatining maksimal miqdorini aniqlaydi. Qiyमत uzunligi Parametr tavsiflash elementlari qiymatining maksimal uzunligini (simvollarida) aniqlaydi.

R

Rambler – Rossiya davlati axborot qidiruv tizimi bo'lib, eng ko'p serverlarda qidiruv olib boruvchi tizimlardan hisoblanadi, elektron manzili: [http:// www.rambler.ru](http://www.rambler.ru).

Rastr – Tasvirlarni to'g'ri burchakli matritsaviy tasvir elementlari – piksellar shaklida taqdim qilishning raqamli vositasi. Ular tasvirlarni yoki fazoviy obyektlarni rasrri ifodalash asosidir.

Registrlar – Axborot birligining saqlash joyi. Bir ishchi taktda kompyuter registrlarda joy bo'la qadigan axborotlar sonini qayta ishlash mumkin. Agar registrlar o'ziga 8 birlilik axborotni sig'dira olsa, ular 8 razryadli va mos ravishda protsessorlar ham 8 razryadli deyiladi. Agar protsessorning razryadi shunchalik yuqori bo'lsa, kompyuter shunchalik tez ishlaydi. Pentium IV protsessori 32 razryadli hisoblanadi.

Rekursiya – Dasturlash tillarida protsedura yoki funksiyalar o'z-o'zini chaqirish imkoniyatiga ega bo'lgan qism dasturlar rekursiyali (o'z-o'zini chaqiruvchi) qism dastur.

Rezident dastur – Joriy vaqtda bajarilayapitimi yoki yo'qmi, bundan qat'i nazar, tezkor xotiradan joy olgan obyekt.

Rezident viruslar – O'zini yoki ma'lum qismini tezkor xotiraga joylashtirib, operatsion tizimini fayllar va disklanga murojaat qilishni qo'lga olgan holda ularga yuqadi.

Rizograf – Kompyuterda tayyorlangan original-maketni chop qilish uchun ishlatiladi. Rizografning turli shakllari mavjud. Ular turli chop qilish tezligiga ega bo'lib, rangli ko'rinishda chop etadi.

S

Sanog sistemasi – EHM (kompyuter)ning arifmetik amallardan biri bo'lib, u axborotni tasvirlashda nol «0» yoki bir «1» qiymatini aniqlaydi. Turli sanog sistemalari mavjud bo'lib, ular: o'nlik sanog sistemalari, 60 lik sanog sistemalari (vaqt bilan bog'liq), ikkilik sanog sistemasi va hokazo.

SAP – Raqamli-analogli almashtirgich, u raqamli signaldan analogli kodga almashtiradi.

Saralash – Bu parametr statistik taqsimlashning sanobach usulini aniqlaydi.

CD (CD-ROM) – Compact Disk Driver axborotni o'qish tezligi bilan alohida xarakterlanadi. Bir birlilik axborot o'qish tezligi sifatida sekundiga 150 Kbayt axborot o'qish qabul qilingan bo'lib, qolganlari shunga karrali qilib olinadi.

CD tower (CD-disk minorasi) – Bu qurilma bir paytning o'zida bir necha CD-disklarni joylashtirish va turli manbalarga murojaat qilish imkoniyatini beradi. Uni MIKning muassus turi sifatida, katta hajimdagi axborotlarga ega bo'lgan bir necha CD-disklarda joylashgan katta ma'lumotlar bazasini boshqaruvchi kompyuter sifatida bahobach mumkin. CD tower lokal tarmoqlar uchun server vositasini ham bajarishi mumkin.

Semantika – Til to'g'risidagi fan – lingvistikaning tarkibiy qismi bo'lib, tilning elementlari va ularning ma'noli qiymatlari orasidagi munosabat hamda tilning sintaktik tuzilishlaridagi ma'noli qiymatlarning sharhi masalalarini qaraydi.

Semantik adekvatlik – Uzatiladigan axborotning ma'naviy tarkibi, obyekt obraziga va real ko'rinishiga mos kelishligi hisobga olinadi.

Semantik jihat – Axborotlarni o'rganishda axborotning mohiyatini ochish va ular elementlarining mazmun jihatdan ahamiyati o'rtaqidagi munosabatlarni ko'rsatish imkonini beradigan omil.

Server – Bosh kompyuter yoki xizmatchi kompyuter (mijoz) deb ham nomlanadi. Tarmoqda boshqa «mijoz»larga o'z resurslaridan foydalanish imkoniyatini yaratib beruvchi maxsus kompyuter.

Server ma'muri – Web serverning beto'xtov ishlashini ta'minlovchi, xatolarni bartaraf etuvchi, server va ma'lumotlarni himoya qiluvchi mutaxassis. Server ma'muridan serverni sozlash va o'rnatilgan operatsion tizimni bilish malakasi talab qilinadi.

Si tili – universal dasturlash tili. Hech qanday cheklashlarning yo'qligi va tilning universalligi, u bilan turli xil mazmundagi masalalarni samarali yechish uchun katta qulayliklar yaratadi.

Sikl – Bir xil hisoblash jarayonlarining bir necha bor takrorlanishi.

Sikl indeksi – Sikl bajarilgan qadamlarining soni.

Siklik (takrorlanuvchi) algoritim – Takrorlanuvchi algoritimlarda algoritimning bir bo'lak bandleri para-

metrlarning qabul qilish qiymatiga qarab ketma-ket bir necha marta bajarilishi.

Siklik dastur – Eng kamida bir dona takrorlanadigan qism, siklni o'z ichiga olgan dastur.

Siklik jarayon – Algoritm (programma)ning ma'lum bir bo'lagining bir necha bor ketma-ket takrorlanishi.

Sintaktik adekvatlik – Axborotni uzatish tezligi, aniqligi kodlashitirish sistemasi, tashqi ta'sirlarning mavjudligi va shu kabi jarayonlardan iborat.

Sintez – Analiz (tahlil)ga teskari usul bo'lib, u tahlil davomida ajratilgan qismlar, tomonlarini fikran birlashtirib, predmetni bir butun holga kelitirishdan iborat. Sintez bo'lmasa biror jarayon yoki predmet bo'ladimi, ular haqida yozma fikr hosil qilib bo'lmaydi. Analiz(tahlil) va sintezning mavzy bog'liqlar.

Sistema bloki – Kompyuterining markaziy qismi hisoblanadi. Kompyuter deyilganda aynan sistema bloki tushuniladi.

Sistema platasi – Sistema platasi kompyuterining asosiy platasi hisoblanib, unga BIOS, mikroprotessor, tekoir xotira, kesh xotira, shinalar joylashtirilgan bo'ladi.

Sichqon – Sichqon qo'lining kaftiga sig'adigan ikkita tugmachaali moslama bo'lib, uning yordamida kompyuter ekranidagi obyektlar ustida turli xil manipulyatsiyalarni bajarish, tugmachaalar yordamida signallar kiritish mumkin. Opatik sichqonchaalarining simi yarimo'tkazgichli lazerdan foydalanuvchi yangi, yanada takomillashtirilgan turi mavjud.

Skanner – Skaner qurilmasi qog'ozdagi matn, grafik, turli chizmalar (rasmlar) ko'rinishidagi axborotni kompyuterga kiritish uchun xizmat qiladi. Bir necha turdagi skannerlar mavjud.

SQL tili – SQL (Structured Query Language, odatda «skivel» deyiladi), ma'nosi – tarkiblangan so'rovlar tili.

Bu til ifodalarning xususiyati shundan iboratki, ular ma'lumotlarni qayta ishlash protseduralariga emas, natijalariga yo'natirilgandir.

STADIA dasturi – Ushbu dastur yordamida statistik ma'lumotlarni qayta ishlash, 2 va 3 o'lchovli grafik tasvirlarni tayyorlash mumkin.

Stansiya – Axborot uzatish va qabul qilish bilan bog'liq vazifalarni bajaruvchi obyekt. (Abonent va stansiya birgalikda «Abonent tizimi» deb ataladi.)

Steganografiya – Uslablarni nafaqat saqlanuvchi yoki uzatiluvchi axborot mazmunini, balki maxfiy axborotning saqlanishi yoki uzatilishini berkitish imkoniyatiga ega. Bu metodlar ochiq fayllar orasida maxfiy axborotni niqoblashga asoslangan.

Strategik axborot tizimlari (SAT) – Tashkilotning strategik istiqbolli maqsadlarini amalga oshirish bo'yicha qaror qabul qilishni qo'llab-quvvatlovchi axborot tizimlari.

Strategik axborot tizimlari yuqori bo'g'in boshqaruvchilariga uzoq muddatli rejalar tuzishni ta'minlab beradi. Bu tizimlar eng takomillashgan dasturlardan foydalangan holda vaqtning istalgan paytida ko'p sonli manbalardan ma'lumot olishni ta'minlab beradi.

Strimer – Ma'lumotlarni magnit tasmalı kassetalarga yozish va o'qish qurilmasi.

Sun'iy intellekt – Inson intellektining ba'zi vazifalarini o'zida mujassamlashtirgan avtomatik va avtomatlash-tirilgan tizimlar xususiyati.

Taktli chastota (Taktovaya chastota) – Bu bir vaqt birligida protsessor bajara oladigan opsiya (takt)lar soni. a) H_{01} (1) holatida – elektronlarning harakati mavjud, va b) H_{00} (0) holatida – elektronlarning harakati yo'q. Bu holat takt yoki operatsiya deb ataladi. Agar protsessor bir sekunda shuncha ko'p operatsiyalarni bajarayotgan bo'lsa, kompyuter katta axborotlarni qayta ishlayotgan hisoblanadi. Taktli chastotalar ikki tipga ajratiladi: ichki va tashqi chastotalar.

Tarkibiy operator – Began va emd so'zlarining ichiga olib yozilgan bir nechta operatorlar ketma-ketligi tushuniladi.

Tarmoq adapterlari (interfeys platalar) – Kompyuterni kubelga ulashda foydalaniладigan qurilma. Tarmoq adapterning asosiy vazifasi tarmoqdan keladigan signalarni qabul qilib, kerakli formatga o'tkazish va kompyuter signalini tarmoqqa uzatishdan iborat.

Tarmoq kartasi – Ma'lumotlarni kompyuter tarmog'ida bitta kompyuterdan boshqasiga uzatish paytida kompyuter va aloqa kanali ishini muvofiqlashtiruvchi plata shaklida yaratilgan moslama.

Tarmoq topologiyasi – Tarmoq elementlarining ularni konfiguratsiyasi. Tarmoq topologiyasi uning ishonchligi, ish umumi, keladigan sarf-xarajalar, himoyalanganlik darajasi kabi xarakteristikalarini aniqlab beradi.

Tarmoqlanuvchi algoritim – Tarmoqlanuvchi algoritim har qanday algoritimlarda har bir band bir martadan bajariladi. Lekin sharning bajarilishi yoki bajarilmasligiga qarab qaysi bandlar ketma-ket bajarilishi aniqlanadi.

Tasniflash (turkumlash, klassifikatsiyalash) –

Tushunchalarni bo'lishning alohida turi. Tasniflash predmetlarni ma'lum bir turlarga ajratishdan iborat bo'lib, bunda har bir tur boshqalariga nisbatan o'zining aniq va qat'iy o'rtiga ega. Tasniflash natijalari har xil jadvallar, tizimlar, grafiklar, kodekslar va shu kabilarda o'z aksini topadi.

Tashkiliy ta'minot – Axborot tizimidan foydalanish va unga samarali axborot xizmati ko'rsatish bo'yicha tashkiliy tadbirlar hamda boshqarish hujjatlari majmuasi.

Tashqi qurilma – Ma'lumotlarni kiritadi va chiqaradi.

Tashqi xotira – Kompyuterining tashqi qurilmalariga kirib, unda uzoq muddatga saqlanish va lozim bo'lganda qayta ishlov berilishi kerak bo'lgan ma'lumotlar saqlanadi.

Tashqi chastota – bu protsessor bilan kompyuterining operativ xotirasi o'rtasida amalga oshiriladigan axborot almashinuvdir.

TV-Tyuner – Televideniye signallarini qabul qilib, kompyuter yoki alohida kanalning ishini muvofiqlashtiruvchi plata shaklida yaratilgan moslama.

Ta'minlash operatori – O'zgaruvchilarga tegishli qiymatlarni dasturning o'zida berish hamda ifodaning qiymatini hisoblash uchun ta'minlash operatori qo'llaniladi. Ta'minlash operatori har qanday dasturlash tilining asosiy operatori hisoblanadi.

Ta'riflash – Tushunchaning mazmunini ochib beradigan mantiqiy amal. Ta'rif aniqlanuvchi va aniqlovchi qismlardan tashkil topadi.

Terabayt – 2¹⁰ gegabayt yoki 1024 gegabaytga teng.

Terminal – Kompyuter tarmog'iga ulangan ixtiyoriy kompyuter.

Terminal rejim – Kompyuterini masofadan turib boshqarish xizmati Telnet bilan bog'liq. Masofadagi kompyuter ishini kerakli protokol xizmati orqali boshqarish sharoitida, yoki «terminalli» boshqarish deb yuritiladi.

Tezavvus – axborot qidiruvini samarali olib borish uchun turli darajadagi tushunchalar orasida aloqa bog'lanishi tizimlashtirilgan lug'at.

Tezkor xotira – Kompyuterining ishlash jarayonida bevosita kerak bo'ladigan ma'lumotlar saqlanadi. Ushbu xotira yuqori tezlikda ish bajargani uchun «tezkor» deb nom olgan. Lekin tezkor xotiradagi ma'lumotlar kompyuter o'chirilganda yo'qoladi, ya'ni o'chib ketadi.

Texnik ta'minot – Axborot tizimining o'z funksiyalarini amalga oshirish jarayonida ishlatiladigan barcha texnik vositalar majmuasi. Bularga kompyuterlar va ular bilan bog'liq vositalar (tashqi qurilmalar, axborot tashish vositalari, ma'lumotlarni uzatish qurilmalari), telekommunikatsiya vositalari (aloga tizimlari, tarmoqlar, tarmoqdagi apparatlar va hokazolar) kiradi.

Texnologiya – Yunoncha «techné» so'zi «san'at», «mehorat» degan ma'nolarni anglatadi.

TIME buyrug'i – Kompyuterga vaqtni kiritish hamda uning ma'lumot olish uchun qo'llaniladigan buyruq.

Tizim (sistema) – Biror-bir maqsadga erishish yo'lida bir-biri bilan bog'liq, faoliyat ko'rsatuvchi bir-biri bilan o'zaro bog'liq elementlar to'plami. Tizim bir vaqtning o'zida ham yaxlit, ham o'zaro bog'langan tarzda faoliyat ko'rsatadigan bir necha turdagi elementlardir.

Tizimli dasturiy ta'minot tarkibiga kiruvchilar – operatsion tizimlar va qobiqlar; testlash va diagnostika

dasturlari; tashqi qurilmalarga xizmat qiluvchi dasturlar, mas., yig'uvchilar, arxivatorlar, antivirustlar.

Tizimli dasturlar – Turli xil funksiyalarning bajarilishini ta'minlaydi, mas.: kompyuterning resurslarini boshqaradi; foydalanilayotgan axborotning nusxalarini tuzadi; kompyuter qurilmalarining ishlash imkoniyatini nazorat qiladi; kompyuter haqida ma'lumotlarni taqdim qiladi va hokazolar.

Tizimli plata (Mother Board – «ona plata») – Kompyuterning asosiy platformasi bo'lib, boshqa elektron qurilmalar: mikroprotessor, tezkor xotira, tizimli shina va boshqa qurilmalarning adapter (kontroller)lari ana shu platformaga o'rnatiladi.

Tizimli shina – Kompyuterining asosiy interfeys tizimi bo'lib, qurilmalar orasida bog'lanishni ta'minlaydi.

TCP (TRANSMISSION CONTROL PROTOCOL) – Protessorlar orasida axborot uzatishni nazorat qiluvchi protokol.

TCP IP protokoli – Internet tizimida foydalaniladigan protokollar.

Tovush kartasi – Protessoridan chiqadigan signalni elektr signaliga aylantirib, kompyuterining tovush chiqaruvchi qismini yuboradigan va keyin tovush kuchaytirgich yoki kalonkalarga yetkazib beruvchi vosita.

Trafik – Ma'lumotlarni uzatish liniyasi orqali uzatiladigan kompyuterli signallar.

Translatiya – Algoritmning mashina dasturiga o'tkazish jarayoni. Algoritmning mashina dasturiga o'tkazishni translatorlar amalga oshiradi. Translatorlar interpretatorlar va kompilyatorlarga bo'linadi.

Траektorка – Sichqon siljishi yoki koordinatorlarni harakatining boshqa qurilmasi harakatlarini ekranda kursor orqali ko'rsatish.

Trekbol – «Ag'darilgan» sichqonchani eslatuvchi qurilma. Trekbolda uning korpusi emas, balki sharcha harakatiga keliriladi. Bu esa kursorni boshqarish aniqligini saqlashni ta'minlaydi.

Triggor – Ikki bitli axborotlar (saqlanilayotgan va kiritiluvchi) bilan mantiqiy amallarni bajarish uchun eng kichik qurilmalar bir-biri bilan bog'langan to'plamdan iborat bo'lgan qurilma, uning holati mavjud bo'lib, 1 bit axborotni oqchilaydi.

Transform – Tasvir shaklini turli ko'rinishlarda o'zgartirish.

Transformatsiya – Tasvirda belgilangan maydonni o'zgartirish ko'rsatish.

Tyuring mashinasi – 20-asrning 30-yillarida ingliz matematigi A. Tyuring tomonidan tavsiya etilgan mashina. Algoritmida aniq yoritilgan ko'rsatmalarni ijro etish jarayonini avtomatlashirish inson bajaradigan ishini mashinaga uzatishni taqozo qiladi. Tyuring mashinasi tushunchasi bizga intuitiv ma'lum bo'lgan hisoblash jarayonini elementar operatsiyalarga ajratish natijasida yuzaga keladi. Tyuring mashinasi muayyan mexanik qurilma emas, balki «xayoliy» matematik mashinadir. Mashina xato qilmaydi, ya'ni u og'ishmay (chetga chiqmasdan) ko'rsatilgan qoidani bajaradi. Tyuring mashinasi potentsial cheklanish xotira bilan ta'minlangan.

To'rtimon model – Tugunlardagi shoxlar soni (yo'nalishlar)ga cheklanish bo'lgan daraxtsimon tarkibli model.

U

Umumiy til – Kompyuterlar guruhi va ular ishlatadigan tashqi qurilmalar uchun umumiy bo'lgan mashina tili.

UNIX – Ko'p foydalanuvchili, ko'p vazifali operatsion tizim bo'lib, u dasturlarni va turli foydalanuvchilarning fayllarini yetarlicha kuchli himoya vositalarini o'z ichiga oladi.

UPS – Elektr manbaini uzmasdan (mutasil) ta'minlab turish qurilmasi (ma'lum vaqt kompyuterni elektr toki bilan ta'minlab turuvchi qurilma).

URL (Uniform Resource Locator) – Bu WWW dagi manzil, resursning yagona ko'rsatkichi. Internet orqali kirishi mumkin bo'lgan fayl yoki resurs nomi. Protokol nomi, uzeli nomi va faylgacha bo'lgan yo'lni o'z ichiga oladi.

Uflita – Disk va fayl sistemalar bilan ishlash bo'yicha foydalanuvchilarga qo'shimcha xizmat ko'rsatuvchi vositalardir.

V

WAN (Wide-Area Network) – Keng masshtabli (mintaqaviy) maxsus qurilma va dasturlar bilan ta'minlangan alohida tarmoqlarni birlashtiruvchi kichik tarmoq.

Web-dasturchi – Web-sayt uchun qo'yilgan masalaga mos, maxsus dastur tuzuvchi mutaxassis. Undan Java, C/C++, MySQL, Perl, PHP, ASP, SST, HTML va boshqa tillarni bilish malakasi talab qilinadi.

Web-site – Web tarmog'i axborot uzeli, ma'lum bir mavzu bo'yicha axborot beradi, biror-bir shaxs yoki tashkilot tomonidan qo'llab-quvvatlanadi.

Vektor – To'g'ri chiziqning yo'nalishga ega bo'lgan kesma, ya'ni uchlaridan biri vektorning boshi deb, ikkinchisi esa vektorning oxiri deb ataladigan kesma. Faqat son belangina emas, balki yo'nalish bilan ham xarakterlangan miqdorlarni tekshiruvchi turli masalalari vektor tushunchasiga olib keladi. Vektor lotincha «vector» so'zidan oqib chikuvchi» degan ma'noni anglatadi.

Veronika dasturi – ma'lumot va fayllar joylashgan serverni topish uchun xizmat qiluvchi dastur. (Veronika – Very Easy Rodent Oriented Netwide Index to Computer Archives – qiziqquvchilar uchun kompyuter arxivlari bo'yidagi ma'lumot beruvchi).

Videoadapter – Protessor va monitor aloqasini ta'minlovchi qurilma.

Videokonferensiyalar – Videokonferensiyalar kompyuter, telefon aloqasi orqali amalga oshiriladi. Bunda bir shahardagi, mas., seminar ishtirokchisi boshqa bir shahardagi ma'ruzachi bilan o'zaro jonli mulogot qilishi mumkin. Albatta, buning uchun maxsus video va multimedia qurilmalari bilan birga, ularning kompyuterda maxsus dasturlari ta'minoti ham zarur bo'ladi.

Videoproyektor – Kompyuterda tayyorlangan audio-video materiallarni kattalashtirib, ekranga chiqarish uchun xizmat qiladi.

Videoxotira – Videoxotiraga, odatda, videoadapter o'rnatilgan bo'lib, unda monitor ekraniga chiqarilishi lozim bo'lgan axborot saqlanadi.

Windows – 1983-yil noyabrda Makrosoft korporatsiyasi tomonidan qobiq dastur Windows ishlab chiqildi. Windowsning 10 dan ortiq versiyalari yaratilgan.

WINPOPP dasturi – Bir vaqtning o'zida kichik

matnlarni jo'natish imkonini yoki lokal tarmoqdagi har bir foydalanuvchiga xabar yuborish imkonini beradi. Xabarlarni uzatish chog'ida WINPOPP dasturi kompyuter – jo'natuvchida ham kompyuter qabul qiluvchi tomonidan ham faollik talab etiladi. Matn xabarlari esa lotin alifbosida bo'lishi shart.

Vinchester – Qattiq disk (HDD – hard disk drive), kompyuter bilan ishlashda foydalaniladigan axborotning doimiy saqlash qurilmasi.

Virtual kutubxona – Axborotlardan birgalikda foydalanish uchun o'zaro zarur aloqalarga ega bo'lgan va turli hududlarda joylashgan elektron kutubxonalar tizimi.

Virtual reallik – Biror-bir obyektning grafik tasvirlash bilan g'oyaviy fazoni tashkil qila olishni rivojlantirish zarur bo'lgan sohalar, ya'ni konstruksiya va grafika sohasida, rassomchilik va boshqa masalalarni yechishda qo'llaniladi.

Virus – «Kompyuter viruslari» – kompyuter sistemalarida tarqalish va o'z-o'zidan qaytadan tiklanish xususiyatlariga ega bo'lgan bajaruvchi yoki sharhlanuvchi kichik dasturlardir. Virusning obyektini buzish imkoniyati bo'yicha quyidagi turlarga ajratish mumkin: Zararsiz viruslar, xavfli viruslar, o'ta xavfli viruslar. Ular turiga kompanon, chuvalchangsimon, parazit, talaba, stels, polimorf, mutanti, troyan va hokazo viruslar kiradi.

WWW (World Wide Web) – «Butunjahon o'rgimchak to'ri» Internet tarmog'ida axborotlarni gipermatn ko'rinishiga asoslangan interaktiv xizmat tizimi. Demak, WWW deganda, gipermatn bog'lanishni qo'llab-quvvatlovchi «mijoz-server» tizimi tushuniladi.

X

XAB (HUB) – Lokal kompyuter tarmoqlarida kommunikatsiya maqsadida foydalaniladigan qo'shimcha yangi elektron qurilma. XABga kompyuter ulansa, unda elektronkaning bir qismi XABda bo'lsa, ikkinchi qismi kompyuterda bo'ladi. Bu esa ulanishning ishonchligini oshiradi.

Xaker – 1. Kompyuterlar bo'yicha yuqori malakali mutaxassis. 2. O'z bilimlari va vositalaridan muhofaza qilinayotgan resurslardan ruxsatsiz erkin foydalanish uchun foydalanuvchi kompyuterlar bo'yicha yuqori malakali mutaxassis. 3. Informatika sohasida turli noqonuniy harakatlarni bajaruvchi shaxs: boshqa tarmoqlardan ruxsatsiz erkin foydalanish va ulardan axborot olish; dasturiy muhofozalarning muhofazasini noqonuniy ravishda buzish va ularning nusxalarini ko'chirish; kompyuter «viruslarini» yaratish va tarqatish va h.k. Xaker harakatlari turli jinoyat va fuqarolik qoidabuzarliklar tarkibini tashkil qiladi.

Xosh funksiyasi – Ixtalagan uzunlikdagi hujjatning matni asosida uni fiksirlangan uzunlikdagi songa matematik aks ettiruvchi funksiya. Bu funksiyaning qiymati elektron hujjatning matniga o'zgartirish kiritilganligini aniqlash imkonini beradi.

Xizmatchi fayl protsessori – Tarmoqdagi boshqa kompyuterlarga xizmat ko'rsatuvchi, katta hajmdagi ma'lumotlarni saqlash qobiliyatiga ega kompyuter.

Xost kompyuter – Internetning server xizmatini bajaruvchi kompyuterlar. Xost tizimi internet bilan bog'langan aloqa xatlarini oluvchi va uni mos aloqa bo'lim-

lariga jo'natuvchi kompyuter. U internet provayderi vazifasini bajaruvchi tashkilot modemi orgali ulangan kompyuter.

Xotira qurilmasi – Kiritilgan barcha ma'lumotlar va dasturlarni saqlaydi.

Y

YAHOO – MS kompaniyasining internetda axborot qidiruv tizimi bo'lib, elektron manzili: <http://www.yahoo.com/>.

Yandex – Ko'p sonli Rossiya serverlarini o'z ichiga olgan internet axborot qidiruv tizimi. Elektron manzili: <http://www.Yandex.ru/>.

Yechim – Kompyuterda programmaning to'liq bajarilish jarayoni.

Yoritq – Bu obyektning shartli belgilanishi bo'lib, obyektga tezda murojaat qilishni ta'minlovchi vosita. Yoritqning joyini o'zgartirishi, o'chirilishi yoki qayta nomlanishi u murojaat qiladigan obyektga ta'sir qilmaydi.

Yuklash – Kompyuterga unga ulangan qurilmadan dasturlarni yoki ma'lumotlarni uzatish: 1. Foydalanuvchi tomonidan ixtiyoriy veb-sahifani ko'rish, ya'ni ma'lumotlarni veb-sahifadan kompyuterga uzatish («Sahifani yuklash»). 2. Ixtiyoriy fayllarni serverdan kompyuterga uzatish («Faylni yuklash»). 3. Dasturni qattiq diskdan kompyuterning amaliy xotirasiga siljitish («Amaliy tizimni yuklash»).

«Yuklanuvchi» fayl viruslar – Murakkab virus hisoblanib, ularning kodlari faylga va diskning yuklanish sektoriga joylashishi.

Yuklanuvchi viruslar – Dasturning kodi diskning yuklanish sektoriga joylashib olishi.

Yuklash – Tashqi xotiradagi (vinchestr, disket, kompakt-disk) ma'lumotlarni operativ (tezkor) xotiraga joylashtirish jarayoni.

Yulduzsimon topologiya – Kompyuter tarmog'ining har bir topologiyasida barcha kompyuterlar markazdagi kompyuterga ulanadi va axborot almashinishi faqat markazdagi kompyuter orgali oshiriladi. Asosiy og'irlik markaziy kompyuterga tushadi.

Yuzer – Kompyuterdan foydalanuvchi.

Z

Zamonaviy axborot texnologiyalari – Texnologik jarayonlarni kontsepsiyasini qurish, undan umumiy foydalanish, natijalar olish, shaxsiy kompyuterlarni axborot sohasiga yangi texnologiyalarni ta'biq elgan holda qo'llash.

«ZiyoNET» axborot tarmog'i – O'zbekistonda ta'lim va yoshlar yo'nalishidagi axborot resurslarini tizimga soluvchi axborot tarmog'i. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 28-sentabrdagi qarori bilan tashkil etilgan. Mamlakatdagi umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari, oliy ta'lim muassasalari, yoshlar tashkilotlari, kutubxonalar, muzeylar va boshqa ilmiy, ta'lim, madaniy-ma'rifiy muassasalarni qalqaro axborot tarmoqlariga, shu jumladan, Internet tarmog'iga ulash faqat «ZiyoNET» axborot tarmog'i orgali amalga oshiriladi. Umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik

lisey, kasb-hunar kollejlari, oliy ta'lim muassasalari, yoshlar tashkilotlari, kutubxonalar, muzeylar va boshqa ilmiy, ta'lim, madaniy-ma'rifiy muassasalarda «ZiyoNET» axborot tarmog'idan foydalanish bepuldir.

Mamlakatimizdagi umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik lisey, kasb-hunar kollejlari va oliy o'quv yurtlari uchun nashr etilgan barcha darsliklar, o'quv qo'llanmalar va boshqa turli o'quv adabiyotlari, ma'ruza matnlari, dissertatsiyalar ham «ZiyoNET» axborot tarmog'i – «WWW.ziynet.uz» portaliga joylashtirilgan.

Zichlash programmasi – Berilganlarni zichlash maqsadida, tashqi qurilmalarga ko'chirib yozuvchi programma.

SH

Sharhlovchi til – Berilgan tilning alohida imkon beruvchi dasturlash tili.

Shina – Turli qurilmalarni bog'lovchi maxsus simlar. Kompyuterda bir qancha shinalar bo'lishi mumkin.

Shlyuz – Bayonnomani bir turdagi muhitdan ikkinchi turdagi muhitga o'tkazuvchi tarmoq, qurilma. Kompyuter internetga bog'langanda shlyuzdan foydalaniladi.

Shtrixli kodlashtirish – alifbo-raqamli va raqamli ma'lumotlarni turli qalinlikdagi vertikal chiziqlar vositasida kodlashtirish. Maxsus qurilma yordamida o'qiladi va aniqlanadi hamda kompyuter yordamida ishlov beriladi. Shtrixli kodlash kutubxonadarda berilayotgan adabiyotlarni hisobga olishda ishlatiladi.

CH

Chaqirish kodi – Tashqi qurilmaga jo'natiluvchi va uning xotira qurilmasini avtomatik tarzda yozuvchi ikkilik kod.

Chastota – Davrga teskari bo'lgan miqdor, ya'ni davriy $f(t)$ funksiyasi t argumentning $f(t) = f(t+T)$ bo'lgandagi T o'zgarishiga teskari bo'lgan miqdordir. $\nu = 1/T$. Demak, vaqt birligi ichidagi tebranishlar soni chastota deyiladi.

Chat – Haqiqiy vaqt oralig'ida internet bilan mulqot.

Chip – Integral sxema o'rnatilgan yarimo'tkazgich moddaning (odatda, silikon) kichik bo'lagi. Oddiy chip millionlab elektron tarkibiy qismlardan (tranzistorlardan) iborat bo'lishi mumkin. Kompyuterlar choplangan sxemali plata deb nomlangan elektron asosga o'rnatilgan ko'plab chiplardan iborat.

Chipset – Protssessorni o'rab olgan mikroxsemalar.

Tizim (ona) platasida joylashgan mikroxsemalar to'plami.

Chiqarish operatori – Dasturda hosil bo'lgan natijalarni chiqarish uchun qo'llaniladigan operator.

Chiziqli algoritim – Chiziqli tarkibli algoritmlarda algoritmlarning har bir o'rni tabiiy ravishda ketma-ket bir martadan bajariladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Kompyuterlashirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to'g'risida»gi farmoni. 2002-yil 30-may.
2. O'zbekiston Respublikasining «Elektron raqamli imzo to'g'risida»gi qonuni. 2003-yil 11-dekabr.
3. O'zbekiston Respublikasining «Axborotlashirish to'g'risida»gi qonuni. 2003-yil 11-dekabr.
4. O'zbekiston Respublikasining «Elektron hujjat aylanishi to'g'risida»gi qonuni. 2004-yil 29-aprel.
5. O'zbekiston Respublikasining «Elektron tijorat to'g'risida»gi qonuni. 2004-yil 29-aprel.
6. Abduqodirov A., Pardayev A. Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent, «Fan», – 2009.
7. Aripov M., Xaydarov A. Informatika asoslari. – Toshkent, «O'qituvchi», – 2002.
8. Aripov M., Begalov B., Begimqulov U., Mamarajabov M. Axborot texnologiyalari. – Toshkent, «Noshir», – 2009.
9. Imamov E., Fattaxov M., Axborot texnologiyalari. – Toshkent, «Moliya», – 2002.
10. Manturov O., Solnsev Y., Sorokin Y., Fedin N. Matematika terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati. – Toshkent, «O'qituvchi», – 1974.
11. Po'latov A. Kompyuter lingvistikasi. – Toshkent, «Akademnashr», – 2011.
12. Sattorov A. Informatika va informatsion texnologiyalari. – Toshkent, «O'qituvchi», – 2002.
13. Usmanov A., Qoraboyev J., Rahmatullayeva Sh. Davlat va tashkilot boshqaruvida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari. – Toshkent, «Akademnashr», – 2009.
14. Xolmatov T., Taylagov N., Nazarov U.. Informatika. – Toshkent, «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti», – 2003.
15. Sharipov Sh., Fayzixo'jayev D. Mantiq. – Toshkent, «G'afur G'ulom», – 2004.
16. G'ulomov S. va boshqalar. Axborot tizimlari va texnologiyalari. – Toshkent, «Sharq», – 2000.
17. WWW.ziyounet.uz.

IMMOMOV FAYZULLA DALABOYEVICH

**AXBOROT TEXNOLOGIYALARI
terminlari izohli lug'ati**

«Sharq» nashriyot-matbaa
aksiyadorlik kompaniyasi
Toshkent – 2012

Muharrir *Akbar Bahromov*
Badiiy muharrir *Tolib Qanovatov*
Texnik muharrir *Ka'no Boboxonova*
Sahifalovchi *Feriza Kulova*
Musahhib *Nodira Oxunjonova*